

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK 930.2:003.071(575.171)

XUDJAYEVA GULORA XODJAYAZOVNA
XIVA XONLIGI TARIXINI O'RGANISHDA EPIGRAFIK
MANBALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

5A120302 – TARIX (YO'NALISHLAR VA MAMLAKATLAR BO'YICHA)

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA ISHI

Imiy rahbar: *Rashid* t.f.n., dots. Matyakubova M.M

Magistrant: *Gulora* Xudjayeva G.X



Urganch - 2018

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. Xiva xonligining siyosiy-ijtimoiy hayotining manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishi	
1.1. Xiva xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi.....	10
1.2. Xiva xonligi tarixida qo‘lyozmalar va epigrafik ma’lumotlar: o‘xhash va farqli jihatlar.....	17
II BOB. Xiva xonligi tarixiga oid epigrafik manbalar	
2.1. Metal buyum, yog‘och eshiklar, koshin bezaklaridagi va qabrtoshlardagi yozuvlar.....	35
2.2. Xiva xonligining me’moriy obidalari va unga bitilgan ta’rix.....	44
III BOB. Xiva epigrafikasi va uning mazmun mohiyati	
3.1. Xiva Ichan qal’a epigrafik yozuvlari va ularning mazmun mohiyati	51
3.2. Pahlavon Mahmud maqbarasidagi epigrafik yozuvlar.....	63
3.3. Xonlik tarixini o‘rganishda epigrafikaning o‘rni.....	72
XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	
ILOVA	

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliги

Mamlakatimizning beباھо tarixiy boyliklari bilangina emas, balki ko‘hna tarixi, betakror obidalari hamda noyob madaniy yodgorliklari bilan ham olamga mashhurdir. Buni qadimiylar va hamisha navqiron Xiva shahri misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jahon sayyoohlari nigog‘ini jalb qilgan bu shaharning me’moriy obidalari – madrasa-yu maqbaralari, masjidu-minoralari, qasru-saroylari o‘zining chiroyi va hashamati bilan kishini hayratga soladi. Ikki qavat qal’aning ichiga qurilgan barcha obidalar o‘ziga xos tarixga ega.

Xorazmnинг 134 dan ziyod tarixiy-me’moriy obidalarining 54 tasi Xiva shahrida, aniqrog‘i Ichan qal’ada. SHahar 1969 yilda “Ochiq osmon ostidagi tarixiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasi” deb e’lon qilingan. 1990 yilda esa Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib YUNESKOning Jahon madaniy meroslari ro‘yxatiga kiritildi.

Ichan qal’a binolarining bezatilishida epigrafika muhim o‘rin egallaydi. Ular soni, ko‘rinishi va janri, saqlanish darajasiga ko‘ra butun Markaziy Osiyoda muhimi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar qariyb yuz ellik yildan beri Ichan qal’a epigrafikasini o‘rganib, jamlab kelmoqdalar. Biroq ular hozirga qadar yozuvlarga asosan yodgorlik sanasini belgilovchi “material” sifatida qaragan va o‘z tadqiqotlari natijalarini kamdan-kam e’lon qilishgan. Xivadagi yozuvlarning majmuaviy tadqiqotlari hozirga qadar olib borilmagan.

Rossiyalik mashhur sharqshunos A.L.Kunning (1840-1888) Xorazmga ilmiy ekspeditsiyasini ilmiy jihatdan eng samarali deb tan olish lozim. Uning topshirig‘iga ko‘ra, samarqandlik ulamo Mirzo Abdur-Rahmon tomonidan bir qator obidalardagi yozuvlar qayta yozilgan. Bu merosning barchasi mashhur “A.Kun arxivi”dan o‘rin olgan, uning asosiy qismi Rossiya Fanlar

akademiyasining qo‘lyozma meros instituti va Sankt – Peterburgning boshqa muassasalarida saqlanmoqda.¹

Xiva epigrafika yodgorliklari ajoyib havaskor tarixchilar – Hasan – Murod Laffasiy va keyinchalik abdulla Boltaevning qiziqishlari nishoniga aylandi. Xiva epigrafikasining ayrim “ob’ekt” lariga murojaat qilganlar. Biorq bu materiallarda me’moriy epigrafika uning tarixiy, madaniy yoki landshaft kelib chiqishisiz, shunchaki o‘rganilgan. Ichan qal’a epigrafikasining yana bir qadimiy namunasi – bu Sayyid Alouddin maqbarasidagi marsiyadir. Marsiyadagi xronogrammaga ko‘ra u 702 hijriy yil shabon oyining 14 sanasida, 1303 yilning 2 aprelida vafot etgan. Bunga Pahlavon Mahmud majmuasi ziyoratgohining kirish eshiklari va yog‘och kashaklaridagi mis xalqa tushirilgan yozuvlarni kiritishimiz mumkin. Bu yozuvlar turli uslublarda - kufiy, devoniy, nasx, suls imlolarida yozilgan. Ancha keyingi obidalardagi yozuvlar asosan nasta’liq yozuvida yoki uning kursiv ko‘rinishlarida yozilgan. Mavzuning dolzarbliji ham Xiva xonligi epigrafikasini yaqindan o‘rganish, unda bitilgan tarix va pand-nasihat so‘zlarining mazmunini anglash va bu so‘zlar nafaqat bezak balki mazmundor so‘z ekanligini bilishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqotning ob’ekti Xiva xonligi epigrafikasi, predmeti xonlik tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan me’moriy obidalar, qabrtoshlar, yog‘och ustunlar va kirish darvozalari hamda metal, tosh, yog‘ochga yozilgan yozuvlar tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Xattotlik san’ati Xivada eng yuqori darajaga ko‘tarilganini e’tirof etish joiz. Xattotlarning yozuvlari orqali ko‘plab ustalarning nomlari bizgacha etib keldi. Hatto aytish mumkinki, Xiva obidalardagi epigrafikalar bezaklarning eng asosiysi va ta’bir joiz bo‘lsa, “qizg‘in gapiruvchi” elementidir.

¹ Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент, 1965. С.112.

Xiva epigrafikasining boshqa jihat shundaki, obidalardagi yozuvlar ko‘proq tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, bag‘ishlov she’rlar yoki xronogrammalardan va ikkinchi navbatdan Qur’oni karim oyatlari yoki Hadisi sharifdan keltirilgan bitiklardan iborat. Ichan qal’a me’moriy obidalaridagi yozuvlardarda biz donatorlar, me’morlar, koshinkorlar, xattotlar nomlarini ko‘ramiz. Ushbu mavzuni tanlashdan maqsad xonlik tarixini to‘laqonli o‘rganish uchun qo‘lyozma manbalar bilan epigrafik manbalarning ahamiyati kattadir. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi Xiva Ichan Qal’a epigrafik manbalari ya’ni imoratlardagi yozuvlar, metal buyum, yog‘och eshiklar, panjara buyumlari, qabr toshlari kabi moddiy –madaniy manbalarni tadqiq etish bilan xonlik tarixining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy va ma’rifiy tarixini to‘ldirish va qo‘shimchalar kiritish. Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Xiva xonligi tarixini chuqurroq o‘rganish (siyosiy-ijtimoiy, madaniy muhiti)
- Xonlik tarixiga oid qo‘lyozma asarlarni to‘plash va o‘rganish
- Xattotlik va kitobat san’atiga e’tibor qaratish
- Epigrafik manbalarning turlarini o‘rganish
- Madrasa, maqbara va boshqa turli inshootlardagi yozuvlarning tarlari, o‘ziga xos tomonilarini aniqlash
- Metal buyum, yog‘och eshik va panjaradagi yozuvlarni tadqiq etish
- Epigrafik ma’lumotlarning mazmun mohiyati, tarixni o‘rganishdagi o‘rni ko‘rsatish
- Epigrafik yozuvlarning tarixiy, badiiy hamda pand nasihatga oid so‘zligini ko‘rsatish va h.k.

Ilmiy yangiligi

Epigrafik yodgorliklari soni jihatidan Markaziy Osiyodagi eng boy qadimi shaharlardan biri bo‘lgan Xiva haqli suratda Boku, Buxoro, Hirot, Ganja, Isfaxon, Samarqand kabi tarixiy markazlar orasida munosib o‘rin egallaydi. Biroq bag‘ishlov yozuvlari va she’r ko‘rinishidagi xronogrammalar soni jihatidan,

shubhasiz, eng yuqori cho‘qqidadir. Xiva me’moriy yodgorliklari asosan Ichan qal’aning etarlicha cheklangan hududiga va uning yaqin atrofiga joylashgan. Bu xam ularning noyobligidan dalolatdir, zero, yodgorliklarning o‘zi va ularning yozuvlari shahar tarixining ochiq kitobi bo‘lib qoladi. Bu kitobning ko‘p sahifalari xozirga qadar ochilmagan yoki o‘qilmagan.

Epigrafikaning xronologiya doirasi ham e’tiborli: XIII-XX asr. Bu erda ilk bor majmuada saqlangan yozuvlar to‘liq o‘qildi va tarjima qilindi. Bu mashhur shaxslarning vafot etgan sanalarini aniq belgilash, yodgorlik to‘g‘risida avvalgi manbalarda berilgan ma’lumotlarni aniqlashtirish va to‘g‘rilash imkonin berdi. Xususan, Pahlavon Mahmudning saqlanib qolgan barcha ruboiylari to‘liq matni taqdim etildi.

Qolgan obidalardagi yozuvlar aksariyat hollarda to‘liq ko‘rinishda ilk bor taqdim etildi, ayrim holatlarda avvalgi matnlar aniqlashtirildi va hatolar tuzatildi. Masalan, Ark inshootidagi darvoza, SHerg‘ozixon madrasasi, Islomxo‘ja minorasi va boshqalar shular jumlasidandir. Barcha yodgorliklarda biz klassik yozuvlarning beshdan ortiq xilini va o‘nlab uslublarini ko‘ramiz. Epigrafikani va xronogrammalarni o‘qish ustalar, hattotlar, donatorlarning ismlarini aniqlashtirish, ba’zan esa birinchi marta o‘qish, obidalar barpo etilish bosqichlarini aniq sanalashtirish imkonini berdi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- epigrafik yozuvlarning xattotlik san’atidan farqli va o‘xshash tomonlari qiyosiy tahlil qilindi;
- arab yozuvidagi epigrafik ma’lumotlarning yozilish uslubi, xat turi va shakli o‘rganildi;
- dissertatsiyada mavzuga oid ko‘pgina adabiyotlar topib o‘rganildi;
- mavzuga doir adabiyotlarning jamlanmasi tayyorlandi;
- Xiva xonligi tarixiga taalluqli epigrafik ma’lumotlar tahlil qilindi;

- Xiva me'moriy obidalariga bitilgan epigrafik manbalarning mazmun mohiyati ochib berildi;
- epigrafik manbalar - turli narsalarga (metal, tosh, yog'och) bitilgan so'zlar o'rghanildi;
- me'moriy obidalarga bezak hamda husn bo'lgan epigrafik yozuvlarning tarixiylik tadqiq etildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari

Tadqiqot ishining asosiy masalalari Xiva xonligi tarixini o'rganishda epigrafik manbalar va ularni xonlik tarixiga aloqador jihatlarini, epigrafik ma'lumotlarni o'rganuvchi tarixchi olimlarning tadqiqotlari masalalariga va epigrafik yozuvlar asosan nimalarda aks etganligini ko'rsatib o'tish, xonlik epigrafikasini o'ziga xos jihatlarini o'rganish muhim masalalar sirasiga kirib, shunga ko'ra farazlar ya'ni epigrafikani to'la qonli o'rganish uchun qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini rejalashtirish va keyingi epigrafik tadqiqotlarni faraz qilish, ish jarayonini shunga yo'naltirish lozimligi ko'rildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili)

Epigrafik yodgorliklarni tadqiq etish bugungi kun tarixchi manbashunoslarining asosiy vazifasiga aylangan. Ko'pgina manbashunoslar tadqiqotlar davomida qo'lyozma asarlarni o'rganish asnosida epigrafik manbalarga ham murojaat qilganlar. Epigrafik yozuvlar madrasa, maqbara, turli imoratlarning peshtoqi, kirish zallari devorlari, tosh, turli metal buyumlar, marmar toshlarga, yog'och ustunlarga, darvoza xalqalariga yozilgan. Marmar o'ymakorligi bu erda, ayniqsa, rivojlangan. Buyuk ustalar – Islomxo'ja, Pahlavon Niyoz Xorazmiy, komil-devon va boshqalarning ishlari hozirgi kungacha saqlangan. Ayniqsa, usta Xudoyberganovning ishlari xattotlik sa'ati bilimdonlari va uni qadrlovchilarni hayratga solib kelmoqda. U juda sermahsul o'ymakor bo'lган. Agar ustaning

barcha ishlarini bir joyga yig‘iladigan bo‘lsa, ular bir muzey ekspozitsiyasini to‘ldirgan bo‘lar edi.

Qayd etish joizki, yodgorliklar tomoshobinlar e’tiborini tez tortadigan keng hajmli va rangdor me’moriy kompozitsiyalar bilan Ichki shaharga ulkan va salobatli kengroq ato etgan. Mazkur kompazitsion kenglikni (landshaft) davlat ijod qildi va shakllantirdi barpo etdi (bu o‘rinda ko‘proq qo‘ng‘irotlar sulolasiga ularning yaqinlari). Bu kompozitsiyalardagi yozuv alohida o‘rin tutadi. Aynan yozuvlar orqali xukmdor yoki binolarning boshqa homiyilari garchi “ijod huquqi” me’morlar, naqqosh va xattotlarga tegishli bo‘lsada, bu kenglikka o‘zlarining “mualliflik huquqlari”ni da’vo qilganlar. Boshqa tomondan bu - epigrafika birinchi navbatda namoyon bo‘ladigan shaharni (shahar madaniyatini) qo‘shti bo‘lgan cho‘ldan ajratgan va shaharning xokimiyat, diniy, g‘oyaviy jihatdan sezilarli darajadagi afzalliklarini yaratgan.¹

Tarixchilar jamoasi “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar - Xiva” kitobi 2015 yil uch tilda - o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi tarjimasi bilan Toshkent-“UZBEKISTAN TODAY” nashriyotida juda katta hajmda 44 bosma taboqda rangli suratlar bilan nashr qilindi. Kitobda Xiva epigrafikasi to‘la to‘kis yoritib berilgan.²

YA.G‘ulomov “Xorazmning sug‘orilish tarixidan” kitobi,³ Rizoqulixon hidoyat. Xorazm safari kundaliklari kitobi⁴ O.Qorievning “O‘rta asr qo‘lyozma manbalarida ko‘rsatgichlar masalasi” maqolasi,⁵ K.Xudoyberganovning “YOzuvlargacha yashiringan tarix” kitobi⁶, “Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a” kitobi⁷, Xiva xonlari tarixidan⁸ va “Xiva xonlari shajarasi”⁹ E.V. Rtveladze “Xiva-gorod kupolov” kitobi¹⁰, G.Masharipova “Xorazmda bitilgan qo‘lyozmalar” risolasi¹¹, K.Abdullaev

¹ Бабаджанов Б.М. Архитектурная эпиграфика Хивы: культура, прокламации, идеология. [Http:// seeinglikeanarchive. Wordpress/com/ material/](http://seeinglikeanarchive.wordpress.com/material/)

² “Ўзбекистон обидаларидағи битиклар – Хива. Тошкент. “UZBEKISTAN TODAY”, 2015.

³ Ғуломов Я. “Хоразмнинг сугорилиш тарихидан”. Тошкент, 1959.

⁴ Ризоқулиҳон хидоят. Хоразм сафари кундаликлари. Тошкент, 2009.

⁵ Кориев О.Ўрта аср кўлёзма манбаларида кўрсатгичлар масаласи. // 2010.№ 2.

⁶ Худойберганов К. Ёзувларга яширинган тарих. Урганч. Хоразм, 1996.

⁷ Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент. Маънавият, 2012.

⁸ Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Урганч, 2008.

⁹ Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. Урганч, 1996.

¹⁰ Ртвеладзе Э.В. Хива-город куполов. Ташкент, 1997.

¹¹ Машарипова Г. Хоразмда битилган кўлёзмалар. Тошкент, 1997.

“Naqshga bitilgan umr” kitobi,¹² SH.Maylieva va Z.Abdullaevalarning “Xiva masjidi Kalon” risolasi¹³,

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi

Xiva xonligi tarixini o‘rganishda epigrafik manbalar o‘rnini ochib berishda epigrafik yozuvlar tadqiqotchilarining ilmiy – amaliy faoliyati o‘rganilib, epigrafik yozuvlarning yozish uslublari, o‘ziga xos tomonlari, yozuv texnikasi, shu bilan birga mazmun mohiyatini o‘rganish metodidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan oliy ta’lim bakalavriat hamda magistratura mutaxassisligi talabalari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda tarixiy epigrafikaga qiziquvchi barcha kitobxonlar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining pedagoglari foydalanishi, nazariy bilim, amaliy malaka va ko‘nikmalar hosil qilishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi

Tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 7 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, ishning hajmi 100 betni tashkil qildi.

¹² Абдуллаев К. Накшга битилган умр. Тошкент, 1995.

¹³ Майлиева Ш., Абдуллаева З. Хива масжиди Калон. Тошкент, 2013.

I BOB. Xiva xonligining siyosiy-ijtimoiy hayotining manbashunoslik va tarixshunoslilik nuqtai nazaridan o'rganilishi

1.1. Xiva xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi

Uzoq asrlar davomida sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham kitobni muqaddas sanab ardoqlab, saqlab kelgan. Ajdodlarimiz kitobni tengi yo'q beba ho xazina deb bilihgan. Eng qimmatli sovg'a sifatida bir-birlariga hadya qilishgan. Xiva xonligida ham kitob va kitob ishiga katta e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Xivadagi Ichan-qal'a fondi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslilik instituti, Toshkent va Xivadagi shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan XIX va XX asrlarda Xiva xonligi tarixiga oid nodir qo'lyozmalar, toshbosma kitoblar, turli hujjatlar ilmiy ishning manbaviy asosini tashkil etgan. Bu manbalarni bir necha guruhlarga ajratish mumkin: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O'zRMDA F.I.-125), Xiva «Ichani qal'a» davlat muzey qo'riqxonasi arxivi hujjatlari tashkil etadi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslilik institutida saqlanayotgan mahalliy muarrixlar asarlaridan iborat. SHermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy va Muhammad YUsuf Bayoniylar tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o'z mazmuni, ma'lumotlarining ko'pligi, rang-barangligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Bu tarixchilar bir-birlarining ishini davom ettirib, Xiva xonligi hududida XVII asr ikkinchi yarmidan to XX asr boshlarigacha ro'y bergan tarixiy voqealarni o'z ichiga oluvchi «Firdavs ul-iqbol»¹⁴, «Riyoz ud-davla»¹⁵, «Zubdat ut-tavorix»¹⁶, «Jome' ul-voqeoti sultoniy»¹⁷, «Gulshani davlat»¹⁸, shuningdek, Feruzxon hukmronligi davrini o'z ichiga olgan

¹⁴ Мунис., Огахий. Фирдавс ул-икбол // Кўлёзма ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти (кейинчалик Ўз ФА ШИ). – № 821/I.

¹⁵ Огахий. Риёз уд-давлат // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 821/II.

¹⁶ Шу муаллиф. Зубдат ут-таворих // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ – № 821/III.

¹⁷ Огахий. Жомеъ ул-воqeoti султоний // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ – № 9786.

¹⁸ Шу муаллиф. Гулшани давлат // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 7572.

«SHohidi iqbol»¹⁹, «SHajarayi Xorazmshohiy»²⁰ va «Xorazm tarixi»²¹ kabi asarlarni yozib qoldirganlar. Bu asarlardan mavzuga oid ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar olindi²². «Xonlar tarixi»²³ asarining muallifi shahzoda Sayid Hamidjon to‘ra ibn Sayid Muhammadxon, taxallusi «Komyob» bo‘lib, o‘z asarida XIX asrda yashagan Xiva xonlari hayoti va ularning shajarasini yozgan, xotimasida Xorazmda 1874-1875 yildan 1895-1896 yilgacha sodir bo‘lgan voqealar bayon qilingan. «Sayid Muhammadxon tarixi»²⁴ nomli asarda (muallifi noma’lum, boshi va oxiri yo‘q) Xorazm tarixi bo‘yicha ayrim voqealar bayoni berilgan. Sayid Muhammadxon (1856-1865) Xiva xonligini boshqargan davridagi voqealar, shuningdek, uning shajarasni, ota-bobolari bilan bog‘liq voqealar tafsiloti keltirilgan.

«Xivada osori-atiqalar tarixi», «Xiva shoirlari», «Xorazm tarixi materiallari»²⁵ (Laffasiy qalamiga mansub); «Xorazmning ta’rifi»²⁶, «Xiva shahri va uning atrofining ma’muriy bo‘linishi»²⁷, «Isfandiyor davrining voqealari»²⁸ (Jumaniyoz Hoji Xorazmiy al-Xivaqiy ibn Boboniyoz qalamiga mansub); «Xiva xonligi bo‘yicha tarixiy ma’lumot»²⁹, «Xorazmni o‘rganishga oid hujjatlar»³⁰ (Matkarim Otajonov tomonidan yozilgan); «Xorazm tarixi»³¹, «Xorazm xonligi haqida tarixiy hujjatlar»³², «Xorazm tarixiga oid materiallар»³³, «Xorazmdagi quldorchilik voqealariga oid»³⁴, «Asfandiyorxon hukmronlik qilgan davrlarda bo‘lib o‘tgan ba’zi bir voqealar haqida»³⁵ (muallifi Bobojon Safarov) asarlari ham

¹⁹ Шу муаллиф. Шоҳиди иқбол // Кўлёзма. Россия ФА ШИ – № С572; Оғаҳий. Тарихий асарлардан парчалар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.

²⁰ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ – № 9596.

²¹ Шу муаллиф. Хоразм тарихи // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ – № 7421.

²² Мазкур асарлар ишнинг тегишли бобларида таҳ лил қилинади.

²³ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФАШИ. – № 7717; яна қар: СВР (Қисқартирилган сўзлар рўйхати диссертациянинг охирида берилади).VII, – № 5029.

²⁴ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 845; яна қаранг. СВР, I. – № 213.

²⁵ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 12583. – № 9494. – № 12581.

²⁶ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 6895/IX.

²⁷ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 7795/II.

²⁸ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 7568; СВР, VII. – № 5033.

²⁹ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11664/II.

³⁰ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11664/I.

³¹ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 10231.

³² Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11117.

³³ Қаралсин: // Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11254/I.

³⁴ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11254/II.

³⁵ Қаралсин: //Кўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 11254/III.

tadqiqot doirasiga kiritildi³⁶. «Baxt gulshani»³⁷ nomli qo‘lyozma asarning muallifi Mulla Hasan Murod qori, adabiy taxallusi «Komkor al-ushshoq» ibn Muhammadamin ibn Muhammadnazar devon ibn Qilich Niyozboy ibn Niyozmuhammad mahram bo‘lib, XX asr boshlarida yashagan Xorazm adibi. Bu asarda Xiva xonligini Asfandiyorxon boshqargan davrda (1910-1918) sodir bo‘lgan voqealar yoritiladi.

Xon kutubxonasida saqlangan kitoblar, nodir qo‘lyozma asarlar 1873 yili rus bosqini natijasida Xiva xonligi kutubxonasidan Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Bu haqda Bayoniy shunday deb yozadi: «... yana bir uyda (kutubxonada) uch yuz mujallad yozma muzayyan kitoblar bor edi. Peturburgga yuborildi...»³⁸.

Xiva xonligi kutubxonasida musodara qilingan nodir qo‘lyozmalar to‘g‘risida A.L.Kunning o‘zi shunday ma’lumot beradi: «Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to‘pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida SHarq qo‘lyozmalaridan iborat 300 kitob to‘plandi, shulardan, 129 tasi sarlavhalik 140 jilddan iborat tarixiy qo‘lyozmalar, 30 jilddan iborat shoirlarning devonlari va 50 jilddan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari 18 tasi Qur’on va 50 ta darslik kitoblari ham to‘plandi»³⁹.

Xivadan yana 1000 jild kitob II jahon urushi vaqtida Toshkentga olib kelingan. Biroq ularning aksariyatining taqdiri noma'lum.

Xonlikdan olib ketilgan ma’naviy boyliklar orasida Xiva xonlarining arxivi taqdiri ham nihoyatda achinarli bo‘lgan, K.Nurjonov 1873 yili ruslar Xivani zabt etganidan so‘ng madaniy va ma’naviy merosni talon -taroj qilish jarayonida Xiva xonlari arxivi ham olib ketilgan va u Sankt-Peterburgga keltirilgach, qariyb 50 yil davomida e’tibordan chetda qolganligini yozadi. 1936 yilda rus sharqshunosi P.Ivanov Leningraddagi Saltykov – SHedrin nomli kutubxonaning katalog va

³⁶ Мазкур асарлар ҳам диссертацияда таҳлил килинади ва кодикологик таҳлили берилади.

³⁷ Қаралсин: //Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 7771; СВР, VII, – № 5032.

³⁸ Баёний. Шажараи Хоразмшохий // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 9596. 461–варақ.

³⁹ Йўлдошев М.Й. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиш. – Т., 1959. – Б. 38. Яна қаранг: Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Т.1. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 145; Зиёев Х. Туркистанда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.330; Каримов Н. Курбон Берегин қисмати.Т., 2006. – Б. 4.

rasmiy fondlarida qayd etilmagan Xiva xonlarining arxivini topishga muvaffaq bo‘lgan⁴⁰. Akademik M.Yo‘ldoshevning yozishicha ushbu qimmatli tarixiy manba 1873 yilgi Xiva yurishidan so‘ng avval Toshkentga keltirilgan. Xiva safarida rus qo‘sishlari bilan birga bo‘lgan A.Kun saroydagi qo‘lyozma va arxiv hujjatlarning mazmuni bilan shaxsan tanishgach general – gubernator Kaufman nomiga maxsus maktub yo‘llagan va ushbu arxivni Rossiya Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyiga va Sankt-Peterburgdagi xalq kutubxonasiiga jo‘natishni so‘ragan. Xiva xonining mazkur arxivi shu tariqa 1876-1882 yillarda markazga jo‘natilgan. Ushbu ishning tashkilotchisi Aleksandr Kun edi. P.Ivanovning «Arxiv Xivinskix xanov» nomli asari 1940 yil e’lon qilinib, ushbu asarda tarixchi Bayoniy va rus sharqshunosi A.Kun yozib qoldirgan ma’lumotlardan ham o’n hissa ortiq ya’ni, 3000 nusxa kitob, har biri 90 varaqli katta formatli rus daftariga bitilgan Xiva arxiv materiallari topilganligini qayd etib o‘tilgan.

Rus sharqshunosi P.Ivanov va o‘zbek tarixchisi M.Yo‘ldoshevlarning izlanishlari natijasida O‘rta Osiyo xonliklariga tegishli talaygina arxiv hujjatlari topilgan. Tadqiqot jarayonida yuqorida nomlari ko‘rsatilgan tarixchilar tomonidan topilgan arxiv materiallari Rossiyaga olib ketilgan xon arxiv xujjalarning bir qismigina xolos. O‘rta Osiyo xonliklari kabi Xiva xonligidan ham xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi xon arxiv hujjatlarining Rossiya hududiga olib ketilganligi bizga ma’lum. Bu haqda K.Nurjonov shunday deb yozgan: «Xiva xonligining beباho tarixiy va madaniy merosi hisoblanmish arxiv materiallari hanuzgacha Orenburg, Ufa, Qozon, Moskva, Sankt-Peterburg qo‘lyozmalar fondlari, kutubxonalarini va shaxsiy arxivlarda o‘rganilmay yotganligi aniqdir»⁴¹. Xonlik kutubxonalaridagi tarixiy, badiiy, ahloqiy-falsafiy, aniq va tabiiy bilimlarga oid hamda tarjima asarlari asosan Xorazmda etishib chiqqan mashhur tarixnavis, tarjimon, olim, shoir va adiblarning asarlari tashkil etgan. Mazkur yozma merosning aksari ularni mutolaa etib o‘rgangan ijodkorlar va mohir xattotlar qo‘li bilan ko‘chirilgan qo‘lyozma nushalari orqali bizgacha etib kelgan.

⁴⁰ Нуржонов К. Маданиятимиз дурдоналарини излаб // Хоразм ҳақиқати, 1990 йил. 18 март.

⁴¹ Нуржонов К. Маданиятимиз дурдоналарини излаб. // Хоразм ҳақиқати. 1990 йил. 18 январь.

Ular hozirda dunyoning yirik SHarq qo‘lyozmalari xazinalarida saqlanadi va kutubxonalar fehristlari orqali ilm ahliga etib kelgan.

XIX asr – XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoga, jumladan Xiva xonligiga turli yillarda kelgan sayyoohlar, olimlar, harbiylar va boshqa davlat vakillarining yozgan asarlari, mamlakatning o‘sha davr tarixi, xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bular qatorida N.Muravyov, M.Ivanin, L.Sobolev, L.Kostenko, A.Kun, N.Veselovskiy, G.Danilevskiy, D.Gladyshev, X.Vamberi, V.Velyaminov-Zernov, A.Kaulbars, A.SHile, E.Jelyabujskiy, A.Samoylovich, Grishfeld kabi olim va sayyoohlarning esdalik va asarlarini tilga olish mumkin⁴².

YUqorida nomlari keltirilgan mualliflarning asarlarida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi madaniy muhitning asosi bo‘lgan kitobat va kutubxona ishiga ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlarning ta’siri bo‘lganligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Rus sharqshunosligida Xiva xonligining siyosiy tarixi, ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari, ma’muriy va davlat tuzilishi va boshqa masalalar xolisona o‘rganilmadi. Rus sharqshunoslari asarlarida bu masala bo‘yicha bayon etilgan fikrlariga e’tiroz bildirish mumkin. Ayniqsa G.Danilevskiy, N.Muravyov, A.Sobolev, N.Veselovskiy asarlarida Xiva xoni saroy amaldorlari ta’sirida bo‘lib, xonlikda ma’muriy bo‘linish bo‘lmagan, saroyda hech qanday kengash faoliyat

⁴² Муравьёв Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1818-1820 гг. Гвардейского Генерального штаба капитана Н.Муравьёво посланного в сию страну для переговоров. Ч. 1-2. – М., 1822; Иванин М.И. Описание зимнего похода в Хиву в 1839-1840 гг. – СПб., 1874; Соболев Л. Обзор доступов в Хивинское ханство и краткие сведения о нем // ВС (қисқартмалар рўйхати диссертацияда берилган), 1873; Костенко Л.Ф. Хива в 1873 г. – СПб., 1874; Кун А.Л. Доходы Хивинского ханства // ТВ. 1873; Веселовский Н.И. Очерк историка географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877; Данилевский Г. Описание Хивинского ханства // ЗРГО. Кн.5. 1851; Гладышев Д. Муравин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. поручиком Оренбург. Драгуном. Полка Дмитрием Гладышевым и геодезистом Муравиным.– СПб., 1851; Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. – М.: А.И.Мамонтов, 1867; Вельяминов-Зернов В.В. Архивные монеты бухарские и хивинские // ТВОРАО, 1889; Каульбарс А.В. Материалы для разрешение вопроса о повороте Аму-Дарьи в Каспийское море. – Тифлис, 1887; Шиле А. Хива и хивинцы и покорение Хивы. Очерк. – М., 1914; Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. – М., 1875; Самойлович А.Н. К изучению Хивы и Хивинского ханства // Живая Старина, год 18. вып. 2-3, отд. 3-М., 1909; Гришфельд. Военно-статическое описание Хивинского ханства, сост. Капитаном Ген. штаба Гришфельдом, перераб. Генерал-майором Галькиным. Ч. 1-2. – Т., 1902-1908.

ko‘rsatmagan, xonlikda harbiy-feodal tuzum qaror topgan, degan salbiy fikrlarni bayon qilganlar.

Xiva tarixchilari Munis, Ogahiy va Bayoniy asarlarida hamda Xiva xonlari arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlar Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davridayoq davlat boshqaruvining ma’muriy-hududiy, moliyaviy, harbiy va diniy-ma’rifiy negizlari yaratilganligini, bu esa o‘z navbatida, Xorazmda davlatchilik rivojida muhim bosqich bo‘lganini tasdiqlaydi.

L.Kostenko, A.Kaulbars, A.SHile, E.Jelyabujskiy, Grishfeld kabi mualliflarning asarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi aholisi, etnik tarkibi, asosiy mashg‘ulotlari, xonlikda yashagan xalqlar va ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhit haqidagi ma’lumotlar bilan qimmatlidir. SHu o‘rinda A.Kun va A.Samoylovichlarning asarlari va esdaliklari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xiva xonligida nafaqat moddiy yodgorliklar, san’at namunalari talon-toroj qilindi, balki xalqning asrlar osha saqlab kelayotgan madaniy boyliklari, xususan, xonning katta kutubxonasi dagi nodir tarixiy, badiiy, axloqiy, ilmiy asarlar Rossiyaga, aniqrog‘i Sankt-Peterburgga olib ketilganligi va bu topshiriq Turkiston general-gubernatori huzuridagi katta maslahatchi, sharqshunos Aleksandr Kun tomonidan amalga oshirilganligi ta’kidlanadi. A.Kun o‘zining «Xiva xonligiga yurish» asarida Xivadan olib ketilgan nodir buyumlar ro‘yxatini keltirib, sharq qo‘lyozmalari va hujjatlarini Peterburg muzeylariga jo‘natganligini ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatmalar orqali Rossiya imperiyasining xonlikka nisbatan olib borgan mustamlakachi siyosatini ko‘rish mumkin.

Xiva xonligini qo‘shni davlatlar, jumladan, Eron, Rossiya, Buxoro va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning ayrim jihatlarini aks ettirgan ilmiy adabiyotlarda Xiva xonligi va Eronning ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti; ikki davlatning o‘zaro siyosiy aloqalari; iqtisodiy aloqalar; ikki davlatning etnomadaniy hayotida yuz bergen jarayonlar hamda o‘zaro aloqalarga xizmat qilgan karvon yo‘llari tarixi yoritiladi.

SHulardan N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, I.P. Petrushevskiy, M.S. Ivanov, P.P. Ivanov, M.R. Arunova va K.Z. Ashrafyan⁴³ larning tadqiqotlari Xiva xonligining qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yoritishga yordam bergen adabiyotlar sifatida qayd etilsa bo'ladi.

Xiva xonligi tarixini o'rganish va targ'ib qilishda san'atshunos olimlarning borligini ham e'tirof qilish lozim. Jumladan, I.I.Notkin⁴⁴, L.YU.Mankovskaya⁴⁵, V.A.Bulatova⁴⁶ kabi san'atshunoslar Xiva shahri arxitektura yodgorliklarini o'rganish asosida bir qator rangli albomlarni nashr qildirdilar.

O'rta Osiyo, jumladan, Xiva xonligi tarixi bo'yicha yuqorida nomlari tilga olingan olimlardan tashqari chet ellik olimlarning bir qancha asarlarini ham tilga olish mumkin. Ular qatoriga jurnalist Mak-Gaxan⁴⁷, YU.Bregel⁴⁸, M.Olvort⁴⁹, S.Bekker⁵⁰, J.Uiler⁵¹ kabi olimlarning mavzuga oid asarlarini ko'rsatish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilarning asarlaridan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi tarixi, bu davr madaniy muhiti tarixi yoritilgan.

⁴³ Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. – Спб., 1877. – 364 с.; Ўша муаллиф. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – Спб., 1890. Т. I. – 462 с; Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа // Туркмения. – Л., 1929. Т. I. – С. 56-67; Ўша муаллиф. Узбекские ханства / Сочинения. – М., 1963. Т. II (I). – С. 268-293; Петрушевский П.П. Очерки по истории феодальных отношений в Азербайджане и Армении в XVI – начале XIX вв. – Л., 1949. – 384 с.; Иванов М.С. Очерк истории Ирана. – М., 1952. – 468 с.; Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т., 1957. – 313 с.; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI- середина XIX в.) – М., 1958. – 246 с.; Арунова М.Р., Ашрафян К.З. Государство Надиршаха Афшара. (Очерки общественных отношений в Иране 30-40 – х годов XVIII века) – М., 1958. – 283 с.

⁴⁴ Булатова В.А., Ноткин И.И. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. Йўл кўрсаткич. – Т.: Ўздавнашр, 1963.

⁴⁵ Маньковская Л. Хива Хоразм наққошлиги хазинаси. Альбом. – Тошкент-Дрезден, 1982. – 264 б.

⁴⁶ Маньковская Л.Ю., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма. – Т.: Faafur Fuylem, 1968.

⁴⁷ Мак-Гахан Януарий Алоизий. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. – М., 1875; Мак-Гахан. Ўкуздаги ҳарбий ҳаракатлар ва Хиванинг истило қилиниши. – СПб., 1875. О.Абдулаев таржимаси. – Т., 2000; Яна муфассал қаранг: Хива хонлигининг хориж тилларидаги тарихнавислиги т.ф.н. О.Масалиева томонидан ўрганилган. Қар: Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигига Бухоро, Хива ва Кўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. ном. дисс... – Т., 1999.

⁴⁸ Bregel Y. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Indiana University. Part II. Descriptions and Travel; Written Sources for Central Asian History; Ethnography; Folklore; Folk Entertainments; Physical Anthropology. 1995.

⁴⁹ Holdeworth M. Turkistan in the nineteenth century: A brief history of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London, 1959.

⁵⁰ Becker S. Russias protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. – Cambridge. MA: Harvard University, 1968.

⁵¹ Wheeler G.E. The modern history of Soviet Central Asia. – London-New York, 1964.

Xiva xonligi tarixi yoritilgan rus sharqshunoslari va ingliz mualiflarining asarlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu manbalar orqali xonlikning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tarixini o‘rganish mumkin.

1.2. Xiva xonligi tarixida qo‘lyozmalar va epigrafik manbalar: o‘xhash va farqli jihatlar

YOzuv kitobat va xattotlik san’atining asosini tashkil etadi. Birinchi bor yozuv qog‘ozga emas, balki tosh yoki taxtachalarga yozilganligi tadqiqotlardan ma’lum. Bunday yozuvlar mixxat yozuvlaridir. YOzuv tarixini tadqiqotchilar uch bosqichga – shakl chizish-tuzish, yozuv va matbaaga bo‘lib o‘rganganlar⁵².

O‘rta Osiyoda tasviriy san’at taraqqiyoti ham yozuvning takomillashuvi va husnixat bilan naqqoshlik badiiy mazmunining kengaya borishi natijasida vujudga kelgan⁵³. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, qo‘lyozmalar arab imlosida yozilgan. Arab yozuvining o‘nlab turlari mavjud bo‘lib, O‘rta Osiyoda ko‘proq ta’liq, nasta’liq, nasx turlari iste’molda bo‘lgan⁵⁴. Ibn Muqla kufiy arab yozuvi asosida yaratilgan etti xil yozuvning O‘rta Osiyoda keng tarqalganini yozib, bular kufiy, suls, tavqe’, riqo’, rayhoniy, nasx, ta’liq, nasta’liq deb ko‘rsatib o‘tgan⁵⁵. Arab harflari she’riy san’at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini bajargan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar. Son tushunchasini harflar bilan ifoda etish abjad hisobi deb yuritiladi.⁵⁶ Odatta, jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqealar-urush, isyon, qo‘zg‘olonlar ro‘y bergen vaqt, inshootlar, tarixiy obidalarning qurilgan, mashhur shaxslarning tug‘ilgan yillari, shuningdek, asarlarning yozilgan va ko‘chirilgan

⁵² Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 19.

⁵³ Норқулов Н, Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 38.

⁵⁴ Ҳакимжон Масъудали. Хатти муъаллимий (араб ёзувининг вужудга келиши ва турлари). – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 64.

⁵⁵ Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Б. 26.

⁵⁶ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.5.

vaqtłari abjad hisobi bilan berilgan.⁵⁷ Abjad hisobini keltirib chiqarish uchun, avvalo, kitob muallifi yoki xattot tomonidan yozuvda alohida qayd qilingan (yoki tagi chizib ketilgan) so‘zni topamiz. Uni tashkil etgan harflarning ifoda etuvchi raqamlarini abjad hisobi jadvalidan qaraymiz va o‘sha raqamlarni qo‘shamiz. Ana shu yig‘indi orqali xattot izohiga binoan, biron asarning yoki tarixiy shaxsning dunyoga kelgan vaqtini aniqlash mumkin.

SHarq she’riyatida abjad hisobidan foydalanib go‘zal ta’rixlar bitilgan. Eski qo‘lyozma manbalarning yozilgan va ko‘chirilgan yillarini to‘g‘ri aniqlash uchun abjad hisobidan boxabar bo‘lish lozim.⁵⁸ Kitoblarning yozilgan va ko‘chirilgan vaqtı har doim ham abjad hisobida berilavermagan. Agar qo‘lyozma kitoblarning tugallanmasligiga e’tibor bersak, kaminayi kamtarin, g‘aribu – g‘urabo nomlari bilan keltirilgan. SHuni ham aytish kerakki, o‘tmishda ko‘pgina xattotlar va kotiblar kamtarlik yuzasidan o‘zlari ko‘chirgan qo‘lyozma asarlar nihoyasida ismi-shariflarini ko‘rsatish o‘rniga «kaminayi kamtarin» deb yozishgan. Aksariyat hollarda kotiblar «ala madi haqirul faqir» (bu faqir haqirning qo‘li bilan) iborasini qo‘llaganlar⁵⁹.

Xiva xattotlari qo‘lyozma matnnini aniq va ravshan qilib, kitob hoshiyasining mutanosibligini saqlab arab yozuvi turlaridan ko‘proq nasta’liq xatida yozishga intilganlar. Xattotlarning ma’lum bir qismi matnni har xil shakllarda, masalan, baliq, ilon, qush yoki turli idishlar - qumg‘on, kosa, chilim ko‘rinishida yozishgan. Ba’zan yangi motivlar ham qo‘llay boshlaganlar. Bular xalq kitobi «Zahriyajon dostoni» qo‘lyozmasini bezashda aniq ko‘zga tashlanadi⁶⁰. Ko‘pgina qo‘lyozma asarlar matni ko‘chirilganda asl holati, yani muallif yozgan matn o‘zgarganligini ko‘rish mumkin. Hatto bir asar ikki-uch marotaba ko‘chirilgandan so‘ng, bu

⁵⁷ Бу ҳисоб усулининг абжад деб аталишининг маъноси йўқ. У абжад ҳисобидаги саккизта сўзнинг (абжад, ҳавваз, хутти, каламан, саъфас, қаоашат, саххаз, зазағ) биринчиси бўлганлиги сабабли бу система ана шу атама билан юритилади. Абжад ҳисобининг моҳияти, ҳар бир ҳарф муайян бир рақами ифода этади.

⁵⁸ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.5.

⁵⁹ Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. –Т., 1997. – Б. 15.

⁶⁰ Хива минг гумбаз шахри.– Т.: Шарқ, 1997. – Б. 92.

qo‘lyozmalar bir-biridan farq qiladi, asarning asl nusxasi bilan solishtirilgandan tafovut ko‘zga tashlanadi. Demak, asarni ko‘chirish jarayonida muallif tomonidan yaratilgan matnning o‘zgarishi kotib va xattotlarga bog‘liq bo‘lgan. Ammo qo‘lyozma ko‘chiruvchi shaxs ba’zan muallifning o‘zi ham bo‘lgan, muallif ko‘chirgan qo‘lyozmalarda xatolar kam uchraydi. Asar muallif tomonidan ko‘chirilgan bo‘lsa, bu matn dastxat deyiladi. Bunday dastxatlarga tarjimon Muhammad YUsuf Rojiy tomonidan Sayid Subhonquli Muhammad Bahodirxonning «Lubbiy lavoyiq ul-qamar fi-l-ixtiyorot» (Oyning odamlar harakatiga doir qulay vaqt tanlash uchun ko‘rsatmalari) asari, Muhammad YUsuf Bayoniy tomonidan Ali ibn Muhammad al-Xiraviy Binoiyning «SHayboniynoma» asari, Muhammad YA’qub Oxund Beshariqiy tomonidan Muhammad Tohir ibn Muhammad Toyib Xorazmiyning «Hujjat us-solinin va rohat ut-tolibin» (Haqiqat yo‘lida yuruvchilar uchun dalil va haqiqatga intiluvchilar uchun rohat) asari, Oxund Rahmonquli tomonidan Abdurahmon ibn Ahmad al-Jomiyning «Nafoxat ul-uns min hazarot il-quds» (Muqaddaslik avjidan esuvchi shabadalar) asari tarjima etilib, tarjimonlar tomonidan ko‘chirilgan tarjimalar, shuningdek, Bobojon Tarroh-Xodimning «Devoni Xodim» she’rlar to‘plami va Sanoiyning she’riy qissalari kabi asarlar mualliflar tomonidan ko‘chirilganligini dastxatlardan ko‘rish mumkin. Qo‘lyozmalar kodikologiyasini o‘rganishda dastxatlar muhim ahamiyatga ega. YUqorida ta’kidlanganidek, muallif tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma matni, boshqa kotib ko‘chirgan qo‘lyozmalardan bexatoligi bilan ahamiyatli bo‘lib, xattotlar matnni ko‘chirayotganda ba’zi xatolarga yo‘l qo‘yganlar. Xatolar xattotlar saviyasi va ular tayangan manbalardagi nuqson va boshqa turli sabablar oqibatida paydo bo‘lgan.⁶¹ Dastxat esa muallifning nazaridan o‘tganligi aniq va tayanishga arziydigan matn bo‘lganligi uchun ham ishonchli bo‘lgan⁶². Xattot asarni ko‘chirayotganda uni yodda saqlab qog‘ozga ko‘chirgan. Agar yodda olinib qolinishi kerak bo‘lgan qism uzun bo‘lsa, ushbu matnda xatolar vujudga kelgan. YA’ni kotib yoki xattot jumlalarni xotirasida saqlab yozishi yoki matnni qayta-

⁶¹ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.7.

⁶² Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Б. 9

qayta takrorlab yozganligi sabab, asarning ba’zi joylarida o‘z shevasidagi so‘zlar va takroriy iboralar uchraydi. Bu davrda Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Feruz tashabbusi bilan o‘zbek allomalari ijodiga, jumladan, Alisher Navoiy asarlariga qiziqish kuchaygan. Bu davrda Navoiy merosi ellikdan ortiq xorazmlik kotib tomonidan ko‘chirilib, kitobat qilingan⁶³.

Tarixiy jarayonlar va tarixiy voqelikni o‘rganishda bevosita qo‘lyozma manbalarga tayanamiz. Qo‘lyozma manbalarga muroojaat qilar ekanmiz, arab yozuvida yozilgan arab tilidagi, fors tilidagi va eski o‘zbek yozuvidagi ma’lumotlarga duch kelamiz. Arab xalifaligi tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi va arab yozuvining bu hududlarga kiritilishi natijasida ilm fan va davlat rasmiy ishlarida yagona arab yozuvi qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Arab yozuvining bosma shakli nasx xatiga o‘xshash bir chiziqda izchil bosiladi. Unda ba’zi harflar, so‘zlar satr chizig‘ida yoziladi. Ba’zi qo‘lyozmalarda harf nuqtalari bejo qo‘yilib ketiladi. O‘scha nuqtaning qaysi harfga tegishli ekanligini kontekst mazmuni orqaligina bilish mumkin bo‘ladi. Ba’zan esa ikki harf uchun bitta nuqta qo‘yiladi. Bunday hollarda biz o‘scha nuqtani ikkala harfga ham qo‘yib o‘qishimiz lozim. Xattotlar hatto ba’zi qo‘lyozmalarda harflarning nuqtalarini umuman qo‘ymasdan yozib ketganlar. Bu esa kitobxonadan topqirlik va bilimdonlikni talab qiladi.

Tarixchi Komiljon Xudoyberganov o‘z ilmiy tadqiqotlari natijasi sifatida keltirilgan ma’lumotlarda quyidagilar berib o‘tilgan, jumladan, O‘rta Osiyoda xonlik markazi Xivada o‘tgan hukmdor xonlarning vafoti sanasining o‘rganilishi, hech bir ilmiy adabiyot yoki tarixiy qo‘lyozmalarda uchramaydigan sanalarni berishi bilan, xonlar shajarasining tuzilishiga imkon yaratadi. Bu yozuvlar o‘zining tarixiy mazmuni bilangina emas, balki yozilish uslubi bilan ham zamonasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldidan darak beradi. Masalan, Abulg‘oziy va Anushaxonlarning marmar qabrtoshlari nihoyatda chiroyli islimiy naqshlar bilan

⁶³ Каранг: Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.: Фан, 1991; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971; Эрназаров Ф. Кўрсатилган асари. 2005.

bezatilib sayqal berilishi, qabrtoshining sifati, sandiq uslubida bajarilishi davrning nisbatan tinchligi, mamlakatning iqtisodiy quvvatliligidan dalolat bersa, Arangxon qabrtoshidan zamonaning notinch ekanini anglash qiyin emas. Chunki, bu qabrtoshning chiroyli gullar bilan bezatilishi o‘rniga, e’tiborsizlik, shoshmashosharlik bilan ishlangani yaqqol ko‘rinadi. Arangxon zamonasida Ichang-Qal’aning sharqiy Polvon darvozasi yonida qurilgan Xo‘jamberdibiy madrasasi barcha mavjud ilmiy asarlarda 1688 yilda qurilgan deb ko‘rsatilgan. Madrasa kirish eshigining ustidagi marmar lavhadagi yozuvdan esa uning haqiqiy nomi va qurilgan yili aniqlanadi. O‘z o‘rnida Anushaxon qabrtoshining yozuvlari ham juda muhim bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarni beradi.⁶⁴

Xonlarning o‘z unvoniga shoh laqabi qo‘yilishini istashgani, ularning qadimgi Xorazmshohlar davlati mavqeini tiklashga bo‘lgan harakatlaridan dalolat beradi. Qadimgi qabrtoshlardagi yozuvlarning tahlilidan shu narsa ma’lumki, tariximizda ayrim noma’lum qolgan voqea va sanalarga aniqlik kiritildi. Bu qabrtoshlar qimmatliliqi sababli xon va ularning yaqinlari, badavlat xonodonlar a’zolarining qabri ustiga qo‘yilgan. Ular orasida yozuvi mahorat bilan bajarilishi jihatidan xattotlik va o‘ymakorlik san’ati namunasi hisoblanadigani ko‘p bo‘lib, bu ishni Xudoybergan muhrkanga o‘xshagan hunarni san’at darajasiga ko‘targan mohir ustalar bajargan.

Xivaning ko‘pchilik me’moriy obidalaridagi Xudoybergan muhrkan tomonidan ishlangan marmar taxtachalardagi yozuvlarning taqqoslanishi natijasida, bu ustuning ijodiy ishi sermahsulligi, uning haqiqatda ham “zamonasining yaktosi” bo‘lganini guvohi bo‘lamiz. Maqbara majmuidagi xonlarning qabrtoshlarini o‘rganish, bevosita Xiva xonlari shajarasini tuzishga olib keldi. Komiljon Xudoyberganov ilmiy tadqiqotlari natijasida ya’ni qabrtosh yozuvlarini o‘rganib chiqish bilan birga Munis, Ogahiy, Bayoniy va Tabibiy larning qo‘lyozma asarlari kabilardir.

⁶⁴ Ушбу маълумотлар К.Худойбергановнинг Хива хонлари тарихидан китобидан олинди. К.Худойберганов. Хива хонлари тарихидан.Урганч, 2008.-Б.50.

Nasta’liq xatining Xorazm turi, ya’ni Xiva nasta’liqining namunasi sifatida qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan «Firdavs ul-iqbol», «Riyoz ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jome’ ul-vaqeoti sultoniy», «SHajarayi Xorazmshohiy», «Tarixi Xorazm», «Ravzat us-safo», «Tarixi jahongushoyi Nodiriy» kabi asarlarni keltirish mumkin.

Arab yozuvining suls turi asosan kitobning nomi va ichki sarlavhalarini yozishda qo‘llanilgan. Bu yillarda ayniqsa, «Qur’oni karim» va «Hadisi sharif»larni kitob qilishga katta e’tibor berilib, qo‘lyozmaning aniq, ravshan, xatolarsiz bo‘lishini arab husnixatining yirik mutaxassisi Komil Xorazmiy nazorat qilgan. CHunki arab yozuvida biror nuqtaning tushib qolishi yoki nojo‘ya qo‘yilishi so‘z mazmunini o‘zgartirib yuboradi. Muqaddas «Qur’oni karim» ni kitobat qilishda esa, bunga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Arab yozuvining kufiy va shikasta turlari asosan me’morchilikda qo‘llanilib, binolarning peshtoqlaridagi, maqbaralarning sag‘ana toshlaridagi yozuvlarda uchraydi. Albatta bu yozuvar ham mutaxassislar nazoratidan o‘tkazilgan⁶⁵.

O‘ymakor naqsh ulgisini naqqoshlardan olishgan, shuning uchun ham ular naqqoshlar bilan hamkor bo‘lganlar. Ko‘pchilik hollarda ustanning o‘zi naqqosh, xattot va o‘ymakor ham bo‘lgan. Naqqoshlar madrasani tamomlagan tarixni bilgan, muzika va poeziya bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Ular “ulgi” chizish uchun 5-7 yil ustaga shogird tushishgan. Ko‘pchilik hollarda hunar otadan bolaga meros tariqasida o‘tgan. YOg‘och o‘ymakor xalq ustasi, naqqosh Matkarim ibn Muhammad (1768-1859 yy.) Xivadagi Gandumkon qishlog‘ida yog‘och o‘ymakori oilasida tug‘ilgan. Uning o‘g‘li Abdurahmon (1832-1928 yy.) ham shu qishloqda tug‘ilib, Xorazmda mashhur yog‘och o‘ymakori va naqqosh bo‘lib etishgan. Bog‘bek Abdurahmon o‘g‘li (1873-1954 yy.) ham ota-bobolarining hunarini davom qildirib, 16 yoshida usta darajasiga etgan. U Ota Polvonov, Abdulla Boltaevlar bilan hamkorlikda Isfandiyorxonning maxsus qabulxonasi, pochta, telegraf, kasalxona, Islomxo‘ja madrasasi va minorasi qurilishida qatnashgan. Safo

⁶⁵ Эрназаров Ф. XIX асрнинг охири XX аср бошларида Хива хонлиги... Тарих фан. ном.дисс... – Б. 67-68.

Bog‘bekov (1904-1978 yy.) bobolari an’anasini davomchisi, Xivaning Sangar qishlog‘ida tavallud topgan. 1920 yildan keyin mustaqil eshik va ustunlar ishlay boshlagan. Mashhur usta Ota Polvonov va Abdulla Boltaevlardan naqqoshlik sirlarini yanada puxta o‘rgangan va shular bilan birgalikda Toshkentdagi Alisher Navoiy teatrining “Xiva” zalini yog‘och o‘ymakorligi san’atining eng yaxshi namunalari bilan bezaganlar. Pahlavon Mahmud maqbarasida yog‘och o‘ymakorligi san’atining XIV-XX asr namunalari qo‘llanilgan. SHerg‘ozixon madrasasiga qarama-qarshi turgan darvozaxonaga o‘rnatilgan qo‘sh tavaqali eshik o‘zining naqshlari chiroyliligi va o‘yma yozuvlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Eshik tavaqalari o‘simpliksimon naqshlardan turg‘un madohil, tojigul va hoshiya naqshlari bilan bezatilgan. Uning tavaqa va kesagisidagi yozuv fors va arab tillarida nasx xatti uslubida bajarilgan.

Xiva shahrida qurilgan XIV asr yodgorligi Sayyid A'louddin maqbarasidagi chiroyli bo‘rtma usulda ishlangan zangori-ko‘k naqshindor koshinlar uzoq yillardan beri o‘z xususiyatini yo‘qotmay yarqirab turishi, har bir kishini hayratga soladi. Koshinpaz ustalardan aka-uka Ortiq va Obidjon YOqubovlar, YUsuf Toji polvon, YUsuf kulol, Bolta Vais o‘g‘li, Eshmuhammad Xudoyerdi o‘g‘li va boshqa ko‘plab ustalarining nomlari tarixda qolgan. Ular ko‘pchilik hollarda o‘z ismini obidalarga o‘rnatilgan koshin g‘ishtlarga yozib qoldirishgan.⁶⁶

Arab yozuvining suls turi asosan kitobning nomi va ichki sarlavhalarini yozishda qo‘llanilgan. Bu yillarda ayniqsa, «Qur’oni karim» va «Hadisi sharif»larni kitob qilishga katta e’tibor berilib, qo‘lyozmaning aniq, ravshan, xatolarsiz bo‘lishini arab husnixatining yirik mutaxassisi Komil Xorazmiy nazorat qilgan. CHunki arab yozuvida biror nuqtaning tushib qolishi yoki nojo‘ya qo‘yilishi so‘z mazmunini o‘zgartirib yuboradi. Muqaddas «Qur’oni karim» ni kitobat qilishda esa, bunga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Arab yozuvining kufiy va shikasta turlari asosan me’morchilikda qo‘llanilib, binolarning peshtoqlaridagi,

⁶⁶ Ёғоч ўймакори, нақош Маткарим ибн Мухаммад, унинг ўғли Абдураҳмон, Ота Полвонов, Абдулла Болтаев ва Сафо Боғбековлар хакидаги маълумотлар тарих фанлари номзоди, К.Худойбергановнинг “Хива хонлари тарихидан” олинди (К.Худойберганов Хива хонлари тарихидан.Урганч, 2008.-Б.49.)

maqbaralarning sag‘ana toshlaridagi yozuvlarda uchraydi. Albatta bu yozuvsular ham mutaxassislar nazoratidan o‘tkazilgan⁶⁷.

Tarixdan ma’lumki, ilm-marifatli hukmdorlar, o‘z davrining mashhurlari bir-birlariga, yaqin kishilariga buyuk allomalarining chiroyli bezatilgan kitobat namunasi hisoblangan shoh asarlarni sovg‘a sifatida hadya qilishgan. Bunday nodir asarlar xattotlar, miniatyurachi rassomlar, zarhal bilan bezovchi muzahhiblar, muqovasozlar, naqqoshlar, qog‘oz tayyorlovchi hunarmandlarning mehnati va san’ati natijasi sifatida vujudga kelgan, beba ho asarlardir. Qadimiy qo‘lyozma asarlar o‘ziga xos tartibda muqovalanishi bilan ajralib turadi. Muqovalash tarixiga nazar tashlasak, bizgacha etib kelgan eng qadimgi muqova III asr oxiri IV asr boshlariga oid muqovalardir. Qo‘lyozmalarni muqovalash ham azaldan kishilardan katta iqtidor va san’at talab etgan. Dastlabki muqovalar bezagi oddiy bosma geometrik naqshlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik muqova jildining ustki qismiga geometrik naqshlar bilan uyg‘unlashtirilgan o‘simliksimon shakllar va zarhal bosma naqshlar, ichki qismiga esa charmdan kesib tayyorlangan jimjimador naqshli kesmalar bilan bezak beriladigan bo‘lgan. Muqovalarni bezatishdagi bunday uslub arab kitoblari orqali keng tarqalib, XV asrgacha ushbu ko‘rinishini deyarli saqlab qoldi⁶⁸.

XIX – XX asr boshlari xonlikdagi xattotlik va kitobat san’ati, xon kutubxonasi, amaldorlar va shaxsiy kutubxonalardagi qo‘lyozma kitoblarning mazmun mohiyati, kodikologik jihatlari tahlil qilinganda qo‘lyozma asarlar xati nasta’liq yozuvida ekanligi ko‘riladi. Qisman nasx, ba’zan nasta’liqda shikasta xati elementlari mushtaraklikda ishlatilish hollari ham uchraydi⁶⁹. Xiva adabiy muhit va xattotlik maktabi namoyandalari bu xat turlarini yaxshi egallagan bo‘lib, husnixatda mashhur bo‘lganlar va nasta’liq xatining Xorazm turiga asos soldilar (bu xat harflarning kattaligi bilan ajralib turadi, shu bois Xivada ko‘chirilgan kitoblarning hajmi ham boshqa hududlarda yaratilgan qo‘lyozmalar hajmidan

⁶⁷ Эрназаров Ф. XIX асрнинг охири XX аср бошларида Хива хонлиги... Тарих фан. ном.дисс... – Б. 67-68.

⁶⁸ Раҳмонқурова М. Ўрта Осиёда қўллэзма китоб муковаларининг алоҳида хусусиятлари // Тарихий манбашунослик муоммолари. / Республика илмий амалий анжуман материаллари. – Т., 2008. – Б. 51.

⁶⁹ Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. –Т., 1997. – Б. 41

kattaligi bilan farq qiladi). Ayniqsa, Komil Xorazmiy va uning o‘g‘li Muham1.3. Epigrafik manbalar va epigrafik tadqiqotlarga umumiy tavsif

YOzuv kitobat va xattotlik san’atining asosini tashkil etadi. Birinchi bor yozuv qog‘ozga emas, balki tosh yoki taxtachalarga yozilganligi tadqiqotlardan ma’lumdir⁷⁰.

O‘rta Osiyoda tasviriy san’at taraqqiyoti ham yozuvning takomillashuvi va husnixat bilan naqqoshlik badiiy mazmunining kengaya borishi natijasida vujudga kelgan⁷¹. Arab yozuvining o‘nlab turlari mavjud bo‘lib, O‘rta Osiyoda ko‘proq ta’liq, nasta’liq, nasx turlari iste’molda bo‘lgan⁷². Ibn Muqla kufiy arab yozuvi asosida yaratilgan etti xil yozuvning O‘rta Osiyoda keng tarqalganini yozib, bular kufiy, suls, tavqe’, riqo’, rayhoniy, nasx, ta’liq, nasta’liq deb ko‘rsatib o‘tgan⁷³.

Arab harflari she’riy san’at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini bajargan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar. Son tushunchasini harflar bilan ifoda etish abjad hisobi deb yuritiladi.⁷⁴ Odatda, jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqealar-urush, isyon, qo‘zg‘olonlar ro‘y bergen vaqt, inshootlar, tarixiy obidalarning qurilgan, mashhur shaxslarning tug‘ilgan yillari, shuningdek, asarlarning yozilgan va ko‘chirilgan vaqtлari abjad hisobi bilan berilgan.⁷⁵ Abjad hisobini keltirib chiqarish uchun, avvalo, kitob muallifi yoki xattot tomonidan yozuvda alohida qayd qilingan (yoki tagi chizib ketilgan) so‘zni topamiz. Uni tashkil etgan harflarning ifoda etuvchi raqamlarini abjad hisobi jadvalidan qaraymiz va o‘scha raqamlarni qo‘shamiz. Ana shu yig‘indi orqali xattot izohiga binoan, biron asarning yoki tarixiy shaxsning dunyoga kelgan vaqtini aniqlab olamiz.

⁷⁰ Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 19.

⁷¹ Норқулов Н, Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 38.

⁷² Ҳакимжон Масъудали. Хатти муъаллимий (араб ёзувининг вужудга келиши ва турлари). – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 64.

⁷³ Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Б. 26.

⁷⁴ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.5.

⁷⁵ Бу хисоб усулининг абжад деб аталишининг маъноси йўқ. У абжад хисобидаги саккизта сўзнинг (абжад, хавваз, хутти, каламан, саъфас, каоашат, саххаз, зазағ) биринчиси бўлганлиги сабабли бу система ана шу атама билан юритилади. Абжад хисобининг моҳияти, ҳар бир ҳарф муайян бир ракамни ифода этади.

Bu yozuvlар o‘zining tarixiy mazmuni bilangina emas, balki yozilish uslubi bilan ham zamonasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan darak beradi. Masalan, Abulg‘oziy va Anushaxonlarning marmar qabrtoshlari nihoyatda chiroyli islimiyl naqshlar bilan bezatilib sayqal berilishi, qabrtoshining sifati, sandiq uslubida bajarilishi davrning nisbatan tinchligi, mamlakatning iqtisodiy quvvatliligidan dalolat bersa, Arangxon qabrtoshidan zamonaning notinch ekanini anglash qiyin emas. CHunki, bu qabrtoshning chiroyli gullar bilan bezatilishi o‘rniga, e’tiborsizlik, shoshma-shosharlik bilan ishlangani yaqqol ko‘rinadi. Arangxon zamonasida Ichan-Qal’aning sharqiy Polvon darvozasi yonida qurilgan Xo‘jamberdibiy madrasasi barcha mavjud ilmiy asarlarda 1688 yilda qurilgan deb ko‘rsatilgan. Madrasa kirish eshigining ustidagi marmar lavhadagi yozuvdan esa uning haqiqiy nomi va qurilgan yilini ko‘rish mumkin. O‘z o‘rnida Anushaxon qabrtoshining yozuvlari ham juda muhim bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarni beradi.⁷⁶

Abdulg‘oziy Bahodurxon va Anushaxonlar qabrtoshi katta gumbazli xonaqohning shimoli – g‘arbiy burchagida, erdan 44 sm balandlikda, koshin supa ustiga qo‘yilgan. Har ikkala qabrtosh ham bir xil qo‘ng‘ir qora marmardan uzun to‘rburchak shaklida ishlangan bo‘lib, nihoyatda chiroyli o‘simpliksimon o‘yma naqshlar bilan bezatilib, sayqal berilgan.

Abulg‘oziy Muhammad Bahodurxon qabrtoshidagi yozuvlар toshning ustki qismidagi chekka (peremetr) bo‘ylab go‘zal nasta’liq xatida bitilgan. Diakritik belgilar (zeru zabarlar) izchil qo‘yilmagan. Marsianing oxirgi misrasida vafot ta’rxi keltirilgan

Oh faryod bu falakning dastidan

Har zamonda yuz jafo ko‘raman undan

SHoh Abulg‘oziyadolatli xon edi.

⁷⁶ Ушбу маълумотлар К.Худойбергановнинг Хива хонлари тарихидан китобидан олинди. К.Худойберганов. Хива хонлари тарихидан.Урганч, 2008.-Б.50.

Uning odilligi to‘g‘risida aytishuvlar bor edi.

Abulg‘ozixonning qabr toshi yonida uning o‘g‘li Anushaxonning ham qabr toshi bor. Bundagi bitiklar ham nasta’liq xatida bo‘lib, qabr toshining yon tomonlari bo‘ylab yozilgan. Diakritik belgilar (zeru zabarlar) izchil qo‘yilmagan. Oliyjanob dengizining gavhari, kamolot cho‘qqisining yulduzi, toho xitob sayyidi, ikki zamon faxri edi u. Olovday qizigan sham shu’lasidek uning chehrasi quyoshdek porloq edi, boshining ziynati - “Ummul kitob” surasiki u unga ega. Hayolimizda u jannatning Firdavs bog‘larida sayr qilib yuribdi. U bu foni yunyodan o‘tib, jannatga dohil bo‘lib, maqsadga erishdi. Ayriliq uning tuproqqa kirishi va qonning to‘kilishidan motam tutilib, quyoshdek chaqnab turgan ko‘zlardan ham qonli yosh to‘kildi. Vafotini tarixini kecha, “sayri bajannat” degan edim, hotib g‘aybdan xabar berdi: ta’rxi “behishtiy bo‘ldi”dan hisoblanadi. Bu ajab hangomada bir qiziq ish ro‘y berdi, ey teskari dunyo sening ishing hamisha inqilobdir. Qish kelib hamma erni ag‘dar to‘ntar qildi. CHunki sayyidlar avlodidan bo‘lgan oliynasab hazratimiz vafot topdi.

Sayyid Arangxon qabrtoshidagi bitiklarda maqbara hovlisining shimol tomonidagi katta supa ustida ikkita kulrang marmardan ishlangan qabrtoshlar qo‘yilgan. Bu qabrtoshlar ham Isfandiyorxon II tomonidan 1913-14 yillarda qorixona qurilganidan keyin bu joyga ko‘chirilgan. Ulardan bittasi Sayyid Arang Muhammad Bahodurxonga tegishli. Qabrtosh hukmdorlarnikiga o‘xshatib chiroyli naqshlar bilan bezatilishi o‘rniga, aksincha, misralardagi yozuvlar marmarga o‘yilganidan keyin sayqal ham berilmagan yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunga Arangxonning vafoti voqealari sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak. Uning taxtga kelishi ham taxtdan ketishi ham qismatli bo‘lgan. U akasi Xudoydodxonni shahid etib, Xudoyquli inoqning sa’y –harakatlari bilan taxtga chiqadi. Ammo o‘zi ham to‘satdan vafot etgan. Vafotidan so‘ng saroyda boshlangan fitnalar sababli, uning qabriga mansabiga yarasha tosh o‘rnatadigan avlodlari ham qolmagan, zero ular Xivadan qochishga majbur bo‘lganlar. Qabrtosh lavhasimon shaklda. O‘rtasida

qabrning kimga mansubligi arab tilida, atrofida esa nasta'liq xatida fors - tojik tilida she'riy marsiya bitilgan oxirgi misrada vafot ta'ixi yashiringan.

Qadimgi qabrtoshlardagi yozuvlarning tahlilidan shu narsa ma'lumki, tariximizda ayrim noma'lum qolgan voqeа va sanalarga aniqlik kiritildi. Bu qabrtoshlar qimmatliliги sababli xon va ularning yaqinlari, badavlat xonardon a'zolarining qabri ustiga qo'yilgan. Ular orasida yozuvi mahorat bilan bajarilishi jihatidan xattotlik va o'ymakorlik san'ati namunasi hisoblanadigani ko'p bo'lib, bu ishni Xudoybergan muhrkanga o'xshagan hunarni san'at darajasiga ko'targan mohir ustalar bajargan.

Xivaning ko'pchilik me'moriy obidalaridagi Xudoybergan muhrkan tomonidan ishlangan marmar taxtachalardagi yozuvlarning taqqoslanishi natijasida, bu ustuning ijodiy ishi sermahsulligi, uning haqiqatda ham "zamonasining yaktosi" bo'lganini guvohi bo'lamiz. Maqbara majmuidagi xonlarning qabrtoshlarini o'rghanish, bevosita Xiva xonlari shajarasini tuzishga olib keldi.

Ichan qal'a binolarining bezatilishida epigrafika muhim o'rinni egallaydi. Ular soni, ko'rinishi va janri, saqlanish darajasiga ko'ra butun Markaziy Osiyoda muhimi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar qariyb yuz ellik yildan beri Ichan qal'a epigrafikasini o'rGANIB, jamlab kelmoqdalar. Biroq ular hozirga qadar yozuvlarga asosan yodgorlik sanasini belgilovchi "material" sifatida qaragan va o'z tadqiqotlari natijalarini kamdan-kam e'lon qilishgan. Xivadagi yozuvlarning majmuaviy tadqiqotlari hozirga qadar olib borilmagan.

Rossiyalik mashhur sharqshunos A.L.Kunning (1840-1888) Xorazmga ilmiy ekspeditsiyasini ilmiy jihatdan eng samarali deb tan olish lozim. Uning topshirig'iga ko'ra, samarqandlik ulamo Mirzo Abdur-Rahmon tomonidan bir qator obidalardagi yozuvlar qayta yozilgan. Bu merosning barchasi mashhur "A.Kun arxivi"dan o'rinni olgan, uning asosiy qismi Rossiya Fanlar

akademiyasining qo‘lyozma meros instituti va Sankt – Peterburgning boshqa muassasalarida saqlanmoqda.⁷⁷

Xiva epigrafika yodgorliklari ajoyib havaskor tarixchilar – Hasan – Murod Laffasiy va keyinchalik Abdulla Boltaevning qiziqishlari nishoniga aylandi. Xiva epigrafikasining ayrim “ob’ekt” lariga murojaat qilganlar. Biorq bu materiallarda me’moriy epigrafika uning tarixiy, madaniy yoki landshaft kelib chiqishisiz, shunchaki o‘rganilgan.Ichan qal’a epigrafikasining yana bir qadimiy namunasi – bu Sayyid Alouddin maqbarasidagi marsiyadir. Marsiyadagi xronogrammaga ko‘ra u 702 hijriy yil shabon oyining 14 sanasida, 1303 yilning 2 aprelida vafot etgan. Bunga Pahlavon Mahmud majmuasi ziyoratgohining kirish eshiklari va yog‘och kashaklaridagi mis xalqa tushirilgan yozuvlarni kiritishimiz mumkin. Bu yozuvlar turli uslublarda - kufiy, devoniy, nasx, suls imlolarida yozilgan. Ancha keyingi obidalardagi yozuvlar asosan nasta’liq yozuvida yoki uning kursiv ko‘rinishlarida yozilgan.

Xattotlik san’ati Xivada eng yuqori darajaga ko‘tarilganini e’tirof etish joiz. Xattotlarning yozuvlari orqali ko‘plab ustalarning nomlari bizgacha etib keldi. Hatto aytish mumkinki, Xiva obidalaridagi epigrafikalar bezaklarning eng asosiysi va ta’bir joiz bo‘lsa, “qizg‘in gapiruvchi” elementidir.

Arab yozuvining turlari ko‘p bo‘lib, dastlabki shakli “Xatti ma’qaliy” o‘rnini VII asrdan boshlab “Ko‘fiy” turi egallay boshlagan. Keyinchalik bu ikki yozuv asosida arab yozuvining etti xil uslubi maydonga keldi.⁷⁸ Ko‘fiy va suls xatlari boshqalariga qaraganda o‘qilishi va yozilishi jihatidan murakkabroq bo‘lsada, bu xatlar ko‘pincha me’morchilik peshtoqiga, qabr toshlariga, tangalarga yozilgan.⁷⁹ “Nasx” va “ta’liq” xatlarining o‘zaro birikuvidan vujudga kelgan yozuv turidir. Nasta’liq yozuvi oson o‘qilishi va chiroyli yozilishi bilan ajralib turadi. SHuning uchun ham O‘rta Osiyo va Kavkazda u rasmiy yozuv sifatida qabul qilingan.⁸⁰ Bu

⁷⁷ Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент, 1965. С.112.

⁷⁸ Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Урганч, 2008.-Б.50.

⁷⁹ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.5.

⁸⁰ Ўша жойда

xat turlarining har biri ma'lum uslubga xoslangan bo'lib, maxsus o'rnlardagina qo'llanib kelingan. Jumladan, muhaqqaq – qasida va she'rlarda, suls-ilmiy asarlarda, rayhoniy va nasx-qissa va xabarlarda, tavqi' – buyruq va farmonlarda, riqo'-maktublar bitishda ishlatalilgan.⁸¹

Turli joylarda, turli zamonlarda ko'chirilgan qo'lyozma manbalarni kuzatsak, ulardagi yozuv bir-biridan keskin farqlanib turishining guvohi bo'lish mumkin. Hatto muayyan bir qo'lyozmaning o'zida ham ayrim so'zlar turli shakllarda yoziladi. Bu esa arab harflarini yozishda ma'lum bir qoidaga rioya qilinavermasligi, yozuvda harflar har bir xattotning o'z didi va saviyasiga muvofiq tarzda o'zgarishi mumkinligini anglatadi. SHuning uchun ham har bir qo'lyozmaning to'g'ri va ravon o'qish uchun xattotning yozuv uslubiga xos xususiyatlarni ham o'rganib chiqish kerak, qolaversa, yozuvda arab harflarining turlicha ifodalanishini yana shu bilan ham izohlash mumkinki, ko'plab xat turlaridan voqif bo'lgan xattotlar qo'chirish jarayonida arab xatining boshqa turlariga xos yozuv uslublarini ham ishga solishgan. Natijada nasta'liq xati shikasta, suls, nasx, riqo' kabi xat turlariga xos yozuv belgilarini ham muayyan darajada o'ziga singdirgan. Kotiblar va xattotlar asosan buyurtma asosida qo'lyozmalar matnidan nusxa ko'chirganlar. Buyurtmachilar ikki xil usulda kotibga haq to'laganlar. Asarni ko'chirish bilan mablag'ni birdaniga olishga urjuga haq to'lash deyishgan. Muqatte' usulida esa pul ko'chirilgan qismlarga qarab, bo'lak-bo'lak qilib to'langan. Urjuga bo'yicha buyurtmani olgan kotib asar matnini tezroq qisqartirib ko'chirib berishdan manfaatdor bo'lgan. Muqatte'da kotiblar ko'chirilgan qism hajmiga qarab pul olib turganliklari uchun o'zlari ham asar matniga qo'shimchalar qo'shib borganlar matnni kattaroq bo'lishini istaganlar⁸².

Xiva epigrafikasining boshqa jihat shundaki, obidalardagi yozuvlar ko'proq tarixiy xususiyatga ega bo'lib, bag'ishlov she'rlar yoki xronogrammalardan va ikkinchi navbatdan Qur'oni karim oyatlari yoki Hadisi sharifdan keltirilgan

⁸¹ Ботиров О. Мунис "Саводи таълимига сўзбоши". Урганч, 1997. –Б.4. Яна қаранг: К.Худойберганов. Хива хонлари тарихидан. Урганч, 2008.-Б.50.

⁸² Эркинов А.С. Матншуносликка кириш.– Б. 14.

bitiklardan iborat. Ichan qal'a me'moriy obidalaridagi yozuvlardarda biz donatorlar, me'morlar, koshinkorlar, xattotlar nomlarini ko'ramiz.

Xiva xoni Muhammad Aminxon davrida Ichon-Qal'aning g'arbiy darvozasi yonida arkning qibla tomonida bir madrasa⁸³ va minora⁸⁴ qurilishi boshlangan. Ushbu madrasa peshtoqidagi yozuv arab tili, nasta'liq xatida "Alloh taoloning inoyati bilan zamon sulton Abulg'oziy Muhammad Amin ibn Olloqulixon (uning qabri nurli bo'lsin) ning amriga binoan ushbu muqaddas madrasa yaxshiliklar maskani bo'lsin deya bino etildi, sana 1270" (1854 y.) deb yozilgan.⁸⁵ SHuningdek, epigrafik yozuvlar tadqiqotchisi K.Xudoyberganov shunday ma'lumot keltiradi: "XX asrning o'ttalarida Muhammad Aminxonning hovlisi eskirib, yiqilib ketgan, uning saqlanib qolgan eshiklarini keltirib, Ota darvozaga o'rnatilgan. Muhammad Aminxon Xiva xonlari ichida eng mard, pahlavon va bahodirlaridan biri bo'lgan. Uning hovlisi tarix taqozosi bilan yo'qolib ketgan bo'lsada, uning Qur'on oyatlari bilan bezatilgan darvozasi bugungi kunda shaharning bosh darvozasiga aylangan va eng hayratlanarlisi, Muhammad Aminxon madrasasi va minorasining oldiga kelib o'rin tutgan. Darvozadagi yozuvlar o'zining butkul tilaklari bilan bu shaharga kirgan odamlarga yaxshilik istab, ularning omonligini Allohdan tilab turibdi."

Marmar o'ymakorligi bu erda, ayniqsa, rivojlangan. Buyuk ustalar – Islomxo'ja, Pahlavon Niyoz Xorazmiy, komil-devon va boshqalarning ishlari hozirgi kungacha saqlangan. Ayniqsa, usta Xudoyberganovning ishlari xattotlik sa'ati bilimdonldari va uni qadrlovchilarni hayratga solib kelmoqda. U juda sermahsul o'ymakor bo'lgan. Xiva tarixini o'rganishda epigrafik manbalarning o'rni muhimligi bilan ahamiyatlidir.

⁸³ Мадраса арабча дарс ўқитиладиган жой, дарсхона. Ўрта ва олий ўкув юрти. Мадрасалар ҳукмдорлар ва бадавлат амалдорлар томонидан қурдирилган в вақф ерлари ажратилган.

⁸⁴ Минора араб тилида маёқ, машъял маъноларини билдиради. Ислом мамлакатларида миноралар масжид ёки мадрасалар ёнида курилган.

⁸⁵ Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қальба. Тошкент, 2012. – Б. 37.

Epigrafik yozuvlari ijtimoiy-madaniy hayot haqida gapirib qolmasdan, balki insonlarni saxiylikka, barcha ne'matlarni shukronasini bilishga undaydigan ibratomus so'zlarning keltirilishi ham ma'naviy hayotimizda katta o'rinni tutadi.

Epigrafik manbalar xususida so'z yuritganda K.Xudoyberganovning tadqiqotlariga e'tibor qaratish joiz. Muallif Polvon darvoza to'g'risida so'z yuritib, darvoza ko'p marta ta'mirlanganligi, Olloqulixon madrasasi qurilishi davrida darvozaning oldida qo'shimcha 33 metr uzunlikdagi darvozaxona qurilgani, endi shahar darvozasidan kirish uchun uchta katta darvoza eshiklaridan o'tilishi, darvozaxonaning har ikkala tomoniga o'rnatilgan katta darvoza eshiklari ustiga chiroyli koshinlar o'rnatilgan bo'lib, ikkita koshin g'ishtga oq bo'yoq bilan ko'k rang ustiga arab yozuvining ta'liq xatti uslubida bitilgan. YOzuvning yuqori qismidagi birinchi satrida arab tilida shunday yozuv bitilgan: "Ey parvardigor, bu eshikni bizlar uchun hayr barakat va nasiblar keltiruvchi arboblar va ashoblar va ilm ma'rifat bilan ochuvchi kishilar hurmati bilan doimo ochiq qilg'il".

Pastki ikkita qatorda forsiy tilda bitilgan she'riy ta'rixda darvozaning qurib tamomlanishi, "shahri Xivaq" jumlasida ta'rix yashiringanligini va abjad hisobidagi echimi hijriy 1221 yil, milodiy 1806 yilga to'g'ri kelishini yozadi.⁸⁶ SHuningdek, Xiva xonlari tarixida Mehmonxona hurmatli mehmonlari uchun qurilgan imorat bo'lib, saroyning mehmonxonasi qismidagi epigrafik yozuvlar o'ziga xos uslubda yozilgan. Mehmonxona ayvoning to'rida, janubiy devoridan ichkariga kiriladigan xonaning yog'och eshigiga arab tilining nasta'liq xatida "Bu muhtasham qasrga hamisha davlat va g'alabalar yor bo'lsin" – deb bitilgan. YUqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, epigrafik yozuvlar insoniylikni, mehr muhabbat va yaxshilikni targ'ibchisi hamdir.

⁸⁶ Ушбу эпиграфик ёзувларнинг араб ва форс тилидан таржимаси К.Худойберганов томонидан амалга оширилган.

I bob xulosasi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Xivadagi Ichan-qal’a fondi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Toshkent va Xivadagi shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan XIX va XX asrlarda Xiva xonligi tarixiga oid nodir qo‘lyozmalar, toshbosma kitoblar, turli hujjatlar ilmiy ishning manbaviy asosini tashkil etgan.

Xon kutubxonasida saqlangan kitoblar, nodir qo‘lyozma asarlar 1873 yili rus bosqini natijasida Xiva xonligi kutubxonasidan Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Bu haqda Bayoniy shunday deb yozadi: «... yana bir uyda (kutubxonada) uch yuz mujallad yozma muzayyan kitoblar bor edi. Peturburgga yuborildi...»⁸⁷.

Xiva xonligi tarixi yoritilgan rus sharqshunoslari va ingliz mualliflarining asarlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu manbalar orqali xonlikning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tarixini o‘rganish mumkin. O‘rta Osiyoda tasviriy san’at taraqqiyoti ham yozuvning takomillashuvi va husnixat bilan naqqoshlik badiiy mazmunining kengaya borishi natijasida vujudga kelgan⁸⁸. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, qo‘lyozmalar asosan arab imlosida yozilgan. Ma’lumki, arab yozuvining o‘nlab turlari mavjud bo‘lib, O‘rta Osiyoda ko‘proq ta’liq, nasta’liq, nasx turlari iste’molda bo‘lgan⁸⁹. Ibn Muqla kufiy arab yozuvi asosida yaratilgan etti xil yozuvning O‘rta Osiyoda keng tarqalganini yozib, bular kufiy, suls, tavqe’, riqo’, rayhoniy, nasx, ta’liq, nasta’liq deb ko‘rsatib o‘tgan⁹⁰.

Arab harflari she’riy san’at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini bajargan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar. Son tushunchasini harflar bilan ifoda etish abjad hisobi deb yuritiladi.⁹¹ Odatda, jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqealar-urush, isyon, qo‘zg‘olonlar ro‘y bergen vaqt, inshootlar, tarixiy obidalarning

⁸⁷ Баёний. Шажараи Хоразмшохий // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 9596. 461 – варак.

⁸⁸ Норқулов Н, Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 38.

⁸⁹ Ҳакимжон Масъудали. Хатти муъаллимий (араб ёзувининг вужудга келиши ва турлари). – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 64.

⁹⁰ Бобохонов А. Ўзбек матбаси тарихидан. – Б. 26.

⁹¹ Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент: Ўқитувчи, 1989. –Б.5.

qurilgan, mashhur shaxslarning tug‘ilgan yillari, shuningdek, asarlarning yozilgan va ko‘chirilgan vaqtłari abjad hisobi bilan berilgan.⁹²

Xiva epigrafikasida, obidalardagi yozuvlar ko‘proq tarixiy xususiyatga ega bo‘lib, bag‘ishlov she’rlar yoki xronogrammalardan va ikkinchi navbatdan Qur’oni karim oyatlari yoki Hadisi sharifdan keltirilgan bitiklardan iborat. Ichan qal’a me’moriy obidalaridagi yozuvlardarda biz donatorlar, me’morlar, koshinkorlar, xattotlar nomlarini ko‘ramiz.

⁹² Бу хисоб усулининг абжад деб аталишининг маҳсус бир маъноси йўқ. У абжад ҳисобидаги саккизта сўзнинг (абжад, ҳавваз, ҳутти, каламан, саъфас, қаоашат, саххаз, зазаг) биринчиси бўлғанлиги сабабли бу система ана шу атама билан юритилади. Абжад ҳисобининг моҳияти, ҳар бир ҳарф муайян бир рақами ифода этади.

II BOB. Xiva xonligi tarixiga oid epigrafik manbalar

2.1. Metal buyum, yog‘och eshiklar, koshin bezaklaridagi yozuvlar

Misdan ishlangan buyumlar avvalo turmushda keng foydalanilgan. Undan suv idishlari, choy ichish uchun choynak, kosa, sho‘rva pishirish uchun maxsus tunchalar tayrlashgan. Bezak sifatida turli –tuman buyumlar yasalgan, davlat bayroqlari va tug‘larning uchiga misdan ishlangan tojlar kiygizilgan, imoratlarga chiroyli panjaralar o‘rnatilgan. YOg‘ochdan ishlangan deraza va eshiklarga zulflar, gulmixlar, tutqich va qulflarni o‘rnatish uchun xalqalar ishlangan. Misdan yasalgan va gul solingan buyumlardagi naqshlar an’anaviy bo‘lib, o‘simliksimon va geometrik, juda kam hollarda xayvonlar shakllaridan iborat bo‘lgan. Xiva o‘ymakorlari ko‘proq islimiy naqshlar qo‘llaganlar. SHuningdek, bu buyumlardagi naqshlar orasida she’r, xalq maqollari, ustanning nomi ham yozilishi odat bo‘lgan. Xiva o‘ymakorlari ko‘proq islimiy naqshlar qo‘llaganlar.aylanma islimiy, turg‘unj deb ataluvchi va murakkab shakllar jamlanmasini ifodalovchi naqshlar ularning eng sevimlisi bo‘lgan. Mis o‘ymakorligi san’ati namunalaridan hisoblangan ikkita tug‘toji Xiva shahar “Ichan - Qal’a” muzey qo‘riqxonasining Tarix bo‘limida saqlanadi. Ulardan biri Sayyid Muhammadxon davrida (1856-1864 yy.) ishlangan. Undagi yozuv nasta’liq xatida:

“Olloh”, 1273, “YO Qodir”.

YOzuv teshib yozilgani sababli har ikki tomondan o‘qiladi. Bu tug‘toji to‘q sariq misdan ishlangan, undagi hijriy 1273 sanasi, 1856-1857 yillarga to‘g‘ri keladi. “Olloh”, “YO Qodir” so‘zlarining yozilish sabab, Olloh madadkorimiz, “YO Qodir” – Ollohnning nomi bo‘lib, qudratli, har ishga qodir Ollohgaga ulkan ishning oldidan qilinadigan iltijoni bildiradi. Ayniqsa, biron erga harbiy yurish paytida bu iltijo navkarlarga ruhiy quvvat bergen.

Mis halqa yozuvining o‘rganilishi Pahlavon Mahmud maqbarasining XIV asrdayoq qurilganini isbotlasa, tug‘tojilarning e’tiborli ishlanishi, ulardagi yozuvlar

Xiva xonligi davrida bayroq - tug‘larning harbiy yurishlarda ahamiyati katta bo‘lgani, bu tug‘larning ham o‘z ramziy ma’nosi bo‘lib, shu nuqtai nazardan o‘z qadr qimmatiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qadimda yog‘och o‘ymakor ustalari faqat buyurtma asosida ishlashgan. Ularning asosiy xom ashyosi gujum, qoramona (qayrag‘och), ko‘k terak va tut daraxtlarib o‘lgan. Xiva ustalari yog‘ochning tabiiyligini saqlash va uzoq muddatga chidamli hamda chiroyli bo‘lib turishi uchun unga hech qanday bo‘yoq urishmagan.

O‘ymakor naqsh ulgisini naqqoshlardan olishgan, shuning uchun ham ular naqqoshlar bilan hamkor bo‘lganlar. Ko‘pchilik hollarda ustaning o‘zi naqqosh, xattot va o‘ymakor ham bo‘lgan. Naqqoshlar madrasani tamomlagan, tarixni bilgan, muzika va poeziya bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Ular “ulgi” chizish uchun 5-7 yil ustaga shogird turishgan. Ko‘pchilik hollarda hunar otadan bolaga meros tariqasida o‘tgan. Ana shunday ustalar shajarasidan birini quyida keltiramiz.

YOg‘och o‘ymakor xalq ustasi, naqqosh Matkarim ibn Muhammad (1768-1859 yy.) Xivadagi Gandumkon qishlog‘ida yog‘och o‘ymakori oilasida tug‘ilgan. Uning o‘g‘li Abdurahmon ham shu qishloqda tug‘ilib, Xorazmda mashhur yog‘och o‘ymakori va naqqosh bo‘lib etishgan. Bog‘bek Abdurahmon o‘g‘li (1873-1954 yy.) ham ota – bobolarining hunarini davom qildirib, 16 yoshida usta darajasiga etgan. U Ota Polvon, Abdulla Boltaevlar bilan hamkorlikda Isfandiyorxonning masxus qabulxonasi, pochta – telegraf, kasalxona, Islomxo‘ja madrasasi va minorasi qurilishida ishlangan.

Safo Bog‘bekov (1904-1978 yy.) bobolari an’anasining davomchisi, Xivaning Sangar qishlog‘ida tavallud topgan. 1920 yildan keyin mustaqil eshik va ustunlar ishlay boshlagan. Mashhur usta Ota Polvonov va Abdulla Boltaevlardan naqqoshlik sirlarini yanada puxta o‘rgangan va shular bilan birgalikda Toshkentdagi Alisher Navoiy teatrining “Xiva” zalini yog‘och o‘ymakorligi

san'atining eng yaxshi namunalari bilan bezaganlar.⁹³ Pahlavon Mahmud maqbarasidagi yog'och o'ymakorligi san'atining XIV-XX asr namunalari qo'llanilgan. SHerg'ozixon madrasasiga qarama-qarshi turgan darvozaxonaga o'rnatilgan qo'sh tavaqali (2x2,5 metr) eshik o'zining naqshlari chiroyliligi va o'yma yozuvlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Eshik tavaqalari o'simliksimon naqshlardan turg'unch, madohil, tojigul va hoshiya naqshlari bilan bezatilgan. Uning tavaqa va kesagisidagi yozuv fors va arab tillarida, nasx xatti uslubida bajarilgan.

Pahlavon Mahmud qabrxonasiga kirish eshiklari ham nihoyatda chiroyli o'simliksimon va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, qabrxona eshigining naqshlari juda nafis ishlangan bo'lib, san'atning eng chiroyli namunasidir. Unda fil suyagidan ishlangan mayda naqshlar geometrik shakllarni ifoda etadi. Bu nihoyatda nozik ish sopma, yig'ma va qadash usulda bajarilgan. YA'ni suyak va yog'ochning kichkina bo'lakchalari ma'lum shaklga keltirilgach, eshikka yopishtirilgan va mayda mixchalar bilan qoqib qo'yilgan.

Bu ikkala eshikdagi yozuvlar ham bir xil bo'lib, suls xatida, arab tilida yozilgan bir hadisdir:

Qola rasulu allahu alayhissalomu;

Ana madinat al-ilmi va Aliyyun bobuho

Tarjimasi:

Rasul alayhissalom aytdilar;

Men ilmlar shahri, Ali uning darvozasidir.

Katta xonaqohdan ziyoratxonaga kirish eshigi ham benihoya chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu eshikda yog'och o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi san'ati bilan uyg'unlashib ketgan. Eshikning har ikkala tavaqasi yuqorisida suyakdan

⁹³ Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Урганч, 2008. – Б. 52.

ishlangan naqshlar o‘rnatilgan va yozuvlari bo‘lgan. Bu yozuvlar bugungacha saqlanmagan, lekin Xiva davlat muzey – qo‘riqxonasi fondida saqlanayotgan, foto suratdan bu eshiklardagi yozuvlarni topishga muyassar bo‘lingan.

Maqbara eshiklaridan yana biirida yozuvlar mavjud bo‘lib, bu eshik orqalikatta gumbaz-xonaqohning sharqiy tomonidagi Jome masjidiga olib boradigan dahlizga chiqilgan. Bir tavaqali (yakka qopi) ushbu eshik va uning kesagisining o‘yma naqshlari ichida suls xattida, arab tilida bitilgan yozuvlar shunday, eshikdagi yozuvlar:

Allahuma iftah lana abo‘aba fazlika o‘a rahmatika

Tarjimasi:

Ey parvardigor ! Bizga fazling va marhamating eshigin ochgil!

Koshin (fors-tojik) – chinniga o‘xhash yaltiroq, rang berib pishirilgan sopol g‘isht. O‘rta Osiyo tarixiy yodgorliklarida (SHohizinda, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Xudoyorxon saroyi va b.) koshin ishlatilishi tarixidan ma’lum bo‘ladi-ki, sopolga sir berish, koshin pishirish XIVasrda ixtiro qilindi.⁹⁴

Juma masjidida ming yillik davrda shakllangan ajoyib yog‘och o‘ymakorligining beba ho durdonalari to‘plangan. Ularning ishlanish uslubi, naqshlarining yasalishidan qaysi asrga taalluqli ekanini, shu davrda hunarmandchilikning qay darajada rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Paxlavon Mahmud maqbarasida Xorazm yog‘och o‘ymakorligi san’atining XIV-XX asr namunalari saqlangan. SHerg‘ozixonan madrasasiga qarama-qarshi turgan darvozaxonaga o‘rnatilgan qo‘sh (ikki) tavaqali eshik naqshlarining chiroyligiga va o‘yma yozuvlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Hozirda darvoza o‘z joyidan olinib va yaxshiroq saqlash maqsadida majmua ichiga eksponat sifatida ko‘chirilgan.

⁹⁴ Турсунова Т. Меморчилик терминларининг лексик грамматик тадқики. – Т., 1987. – Б. 84.

SHu eshik tavaqalari o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Uning ikki tavaqa va kesakisisidagi yozuvlari fors-tojik va arab tillarida bo'lib, unda sha'riy madh va ta'rix yozilgan. Ular nasx va suls xatlarida bitilgan. Diakritik belgilar nisbatan izchil qo'yilgan. YOzuvning ba'zi qismlari shikastlanganligi uchun o'qilishida bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

Matn eshikning o'ng va chap tavaqalari tepe qismidan gorizontal holatida joylashgan Pahlavon Mahmudning madhiyasidan boshlanib, so'ng chap tavaqanining aylanasi bo'ylab davom etadi va nihoyat o'ng tavaqanining perimetri bo'ylab yozilib, shu erda yakunlanadi. Matnning har bir misrasi alohida kitoba (kartush)larda bitilgan.

Darvoza o'ng tavaqasining yuqorisida nasx va suls xatlarida "basmala" va "Imon" kalimasi bitilgan.

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman, Allohdan boshqa iloh yo'q. Muhammad Allohnинг elchisidir.

Payg'ambar, unga (Allohnинг) salomi bo'lsin, aytdilar: "Agarki ishda yaxshilik tilasangiz" qabr ahlini ziyorat qiling.

Maqbara katta gumbazi xonaqohga va Pahlavon Mahmud maqbarasiga kirish eshiklari ham nihoyatda chiroyli o'simliksimon va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, maqbara eshigining naqshlari juda nafis ishlangan bo'lib, Xorazm duradgorlik san'atining ajoyib namunalaridan hisoblanadi. Unda fil suyagidan ishlangan mayda naqshlar geometrik shakllarni ifoda etadi. Bu nihoyatda nozik ish sopma, yig'ma va qadash usulida bajarilgan. YA'ni, suyak va yog'ochning kichkina bo'lakchalari ma'lum shaklga keltirilgach, eshikka yopishtirilgan va mayda mixchalar bilan qoqib qo'yilgan. Maqbara eshigida go'zal nasx xatida matnlar bitilgan. Kirish tomoniga bir hadis matni bitilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasida Isfandiyorxon onasi uchun sakkiz hujra va bir go'rixonadan iborat, ikki qavatli bir qorixona bino qildirdi. Qorixonaning

go‘rxonasi shimoliy tomonida bo‘lib, undagi uchta qabr va ichki devorlari chiroyli koshinlar bilan bezatilgan. Qorixona qurilishiga usta Qurbon Niyoz boshchilik qilgan. Koshinlardagi naqshlarni naqqosh Muhammad Karim Ne’matulla o‘g‘li chizib bergen.⁹⁵

Xorazmning mashhur koshinpaz ustalaridan Bolta Vais va Muhammad Rahim Muhammad Amin o‘g‘li koshinlarni xumda pishirib qorixonani bezaganlar. XVII asr oxirida vafot qilgan Arangxon va Latifaxonimning qabrlari ko‘chirilmasdan qorixona ichidagi bir xonada qoldirilgan.

Muhammad Raximxon I ning qabri-maqbara katta gumbazining to‘rida, yarim aylana shaklida ishlangan ravoq ichida o‘rnatilgan bo‘lib, balandligi taxminan bir yarim metrni tashkil etadi. U sandiq shaklida bo‘lib tepa qismi kichik ravoqli sag‘ana bilan yakunlanadi. Qabr erdan yarim metr balandlikdagi sufida qurilib, chiroyli koshinlar bilan qoplangan. Qarbrpo‘shning yon-atroflarida qabrlar ziyyoratining ahamiyatini ko‘rsatadigan hadislar bitilgan.

Koshindagi yozuvlar Muhammad YUsuf Mehtar tomonidan bajarilgan. Ularning aksariyati nasx va nasta’liq xatlarida yozilgan. Diakritik belgilar izchil qo‘yilgan bo‘lib, harflari ancha zinch bitilgan.

Payg‘ambar unga Allohning salomi bo‘lsin, aytdilar: “Men sizlarni qabrlarni ziyyarat qilishdan qaytargan edim. Keyin menga ma’lum bo‘ldi ya’ni Alloh tomonidan buyurildi. Endi qabrlarni ziyyarat qilaveringlar. CHunki u qalbni yumshatadi, ko‘zni yoshlatadi va oxiratni eslatadi.”

Payg‘ambar unga Allohning salomi bo‘lsin, aytdilar, Qaysi bir musulmon kishi xalok bo‘lgan muslimnonning qabrini ziyyarat qilsa va qabr oldida turib takbir Allohu akbar aytsa va menga salovat yuborsa, so‘ng uch marotaba E, Alloh men sendan Muhammad hurmati va Muhammadning oilalari hurmati bilan bu o‘likka qabrida azob bermasligingni so‘rayman. desa, Alloh undan qiyomat suri puflanadigan kungacha qiyomatgacha azobni qaytaradi.

⁹⁵ Болтаев А. Полвон бобо тарихига доир материаллар. Қўлёзма. 37 дафтар.25-б.

Payg‘ambar, unga Allohning salomi bo‘lsin, aytdilar: “Men ko‘ngillari siniq va qabrlari eskirib noma’lum bo‘lgan kishilar bilan birgaman”.

Baxshida bitik oxirida yana bir hikmat keltirlgan. Payg‘ambar, unga (Allohning) salomi bo‘lsin, aytdilar: Qanoat qilgan aziz, tama qilgan xordir.

Tikansiz gul muyassar bo‘lganda edi,

Har dam jahonda boshqacha ishrat bo‘lar edi.

Olamning bu eski va susaygan raboti,

Agar mard kishi bilan bo‘lsa, yaxshi bo‘lar edi.

YUqori martabali Muhammadyusuf mehtar ko‘rsatmasiga binoan.

Pahlavon Mahmud maqbarasiga dafn qilingan Xiva xonlari va ularning yaqinlari qabri ustiga qo‘yilgan yozuvli marmar toshlarning oltitasi saqlangan. SHulardan ikkitasi ayol kishiniki va bittasi otaliq Tangriquliniki

Abdulg‘oziy Bahodurxon va Anashaxonlar qabrtoshi katta gumbazli xonaqohning shimoli –g‘arbiy burchagida, erdan 44 sm balandlikda, koshin supa ustiga qo‘yilgan. Har ikkala qabrtosh ham bir xil qo‘ng‘ir qora marmardan uzun to‘rtburchak shaklida ishlangan bo‘lib, nihoyatda chiroyli o‘simliksimon o‘yma naqshlar bilan bezatilib, sayqal berilgan.

Abulg‘oziy Muhammad Bahodurxon qabrtoshidagi yozuvar toshning ustki qismidagi chekka (peremetr) bo‘ylab go‘zal nasta’liq xatida bitilgan. Diakritik belgilar (zeru zabarlar) izchil qo‘yilmagan. Marsiyaning oxirgi misrasida vafot ta’rxi keltirilgan.

Abulg‘ozixonning qabr toshi yonida uning o‘g‘li Anushaxonning ham qabrtoshi bor. Bundagi bitiklar ham nasta’liq xatida bo‘lib, qabr toshining yon tomonlari bo‘ylab yozilgan. Diakritik belgilar (zeru zabarlar) izchil qo‘yilmagan.

Oliyjanob dengizining gavhari, kamolot cho‘qqisining yulduzi, Toho xitob sayyidi, ikki zamon faxri edi u. Olovday qizigan sham shu’lasidek uning chehrasi quyoshdek porloq edi, Boshining ziynati- “Ummul kitob” surasiki u unga ega. Hayolimizda u jannatning Firdavs bog‘larida sayr qilib yuribdi. U bu foniy dunyodan o‘tib, jannatga dohil bo‘lib, maqsadga erishdi. Ayriliq uning tuproqqa kirishi va qonning to‘kilishidan motam tutilib, quyoshdek chaqnab turgan ko‘zlardan ham qonli yosh to‘kildi. Vafotini tarixini kecha, “sayri bajannat” degan edim, hotib g‘aybdan xabar berdi: ta’rxi “behishtiy bo‘ldi”dan hisoblanadi. Bu ajab hangomada bir qiziq ish ro‘y berdi, Ey teskari dunyo sening ishing hamisha inqilobdir. Qish kelib hamma erni ag‘dar to‘ntar qildi. CHunki sayyidlar avlodidan bo‘lgan oliynasab hazramiz vafot topdi.

Maqbara xovlisining shimol tomonidagi katta supa ustida ikkita kulrang marmardan ishlangan qabrtoshlar qo‘yilgan. Bu qabrtoshlar ham Isfandiyorxon II tomonidan 1913-14 yillarda qorixona qurilganidan keyin bu joyga ko‘chirilgan. Ulardan bittasi Sayyid Arang Muhammad Bahodurxon ga tegishli. Qabrtosh hukmdorlarnikiga o‘xshatib chiroylı naqshlar bilan bezatilishi o‘rniga, aksincha, misralardagi yozuvlar marmarga o‘yilganidan keyin sayqal ham berilmaganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunga Arangxonning vafoti voqealari sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak. Uning taxtga kelishi ham taxtdan ketishi ham qismatli bo‘lgan. U akasi Xudoydodxonni shahid etib, Xudoyiquli inoqning sa’y –xarakatlari bilan taxtga chiqadi. Ammo o‘zi ham to‘satdan vafot etgan. Vafotidan so‘ng saroyda boshlangan fitnalar sababli, uning qabriga mansabiga yarasha tosh o‘rnatadigan avlodlari ham qolmagan, zero ular Xivadan qochishga majbur bo‘lganlar. Qabrtosh lavhasimon shaklda. O‘rtasida qabrnning kimga mansubligi arab tilida, atrofida esa nastalik xatida fors - tojik tilida she’riy marsiya bitilgan oxirgi misrada vafot ta’rxi yashiringan.

Arangxon qabrtoshining yonida yana bir qabrtosh bo‘lib, u Latifaxonimga tegishli. Abulg‘oz Baxodurxonning rafiqasi Latifaxonim hijriy 1093, melodiy 1682 yilda Anushaxon xukmronligi davrida vafot etgan. Qabrtosh kulrang. Unda

she’riy ta’rix bitilgan. Matnlarning bir qismi o‘chib ketgan bo‘lib, u eski suratlar asosida tiklangan.

Marhum, buyuk podshohning yostiqdoshi,

Jannatmakon shoh Abulg‘oziyning

Latifaxonim pok zotini,

Tuproq ostiga yashirding, ey falak

Bu qanday sitamki unnig qo‘lidan,

Na qari qutilar, na bir yosh juvon

Baxorda ochilgan toza gulni

So‘ldirib tashladi o‘zgaruvchan falak,

Zamonning toza kishilari Rahmat mayini,

Hayotda icholmasdan xarsangtosh tagiga kiradilar .

Parvardigorming taqozasi bilan

Bundan o‘tarlar men kabi qancha odamlar

Men dard bilan bu jannatsifatning vafoti ta’rixini

“Xurlar malikasi jannatga uchib ketdi-dedim”

Tangriquli otaliq qabr toshi to‘rtburchak kulrang marmar lavh tusda bo‘lib, hozirda devorga o‘rnashtirilgan. Matn fors-tojik tilida nas’taliq xatida she’riy ta’rix shaklda bitilgan. Matnning ba’zi harflari shikastlangan.

O‘lmasdan oldin tavba qilishga shoshiling. Bu xarob zamonda bunday narsani hech qachon ko‘rgan emas, hech kim bu kabi hazin qissaga sharh bergen emas, kimki bu jonne kuyduruvchi hikoyatni eshitsa uning dardi kuchayib yurak bag‘ridan faryod

ko‘tariladi. Hech kim falakning tuzog‘idan qutilolmaydi. Hech bir kishi bu ovchi jafosidan xalos bo‘laolmaydi.

Saxovat osmoni yulduzi, vafo dengizining koni, SHijoat osmonining oyi edi, u adolatparvar amir, Xorazm otaliqlarining barcha yig‘inlari chirog‘i edi, tangriquli nomi, u engilmas qurollar egasi, E’tiqod qo‘yganlar boshidagi soyabon sindi, Bir nihol kabi uning qomati o‘lim xazonidan egildi. SHarif ruhi jannat bog‘lariga parvoz qilib, Jannatdagi Sidra va Tubo daraxtlari shoxiga qo‘ndi, Pahlavon Maxmud soyasiga bir kon kabi Uning muborak dargohida o‘z yuzini tuproqqa qo‘ydi. Ahmad payg‘ambar hijrit yilini so‘radim, dedi Hotifdan deb nido keldi.

2.2. Xiva xonligining me’moriy obidalari va unga bitilgan ta’rix

XIX asrning ikkinchi yarmida Muhammad Rahimxon II Feruz davrida Xiva xonligining madaniy hayotida o‘ziga xos yuksalish jarayonlari yuz berdi. Muhammad Rahimxon II Feruz davlatni boshqarish bilan birga bunyodkorlik, obodonlashtirish hamda madaniy rivojlantirishga e’tibor qaratdi. Bunyodkorlik namunasi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yigirmadan ortiq madrasa, masjid, minora va yo‘llar barpo etilganligini aytib o‘tish mumkin. To‘ra Murod minorasi (1888 yil), Bikajon bika minorasi (1894 yil), Polvon qori madrasasi (1905 yil), Qozi kalon madrasasi (1905 yil), Polvon darvoza (1906 yil), Islom Xo‘ja madrasasi va minorasi (1910-1911 yillar) va boshqa ko‘plab me’morchilik obidalari bevosita Muhammad Rahimxon rahbarligi va homiyligida qurildi⁹⁶.

Ma’lumotlarga qaraganda XIX asrning 40-yillarida Ichan qal’ada xon saroyidan tashqari 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va katta bozor bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib esa Xivadagi masjidlar soni 93 taga, madrasalar esa 63 taga etgan⁹⁷.

Bu davrda xonlikda o‘ziga xos me’morchilik maktabi yaratildi. Bu haqda tarixnavis Bayoniy «SHajarayi Xorazmshohiy» asarida shunday ma’lumotni

⁹⁶ Хоразм тарихи. Жилд. 2. Урганч, 1997. - Б. 26.

⁹⁷ История Хорезма. – Т.: Фан, 1976. – Б. 88-89.

keltirgan: «[Muhammad Rahimxon II Feruz] ko‘p madrasa va masjidlar bino qildilar va ko‘p madrasalarning binolariga sabab bo‘ldilar, andog‘ kim, Muhammadmurod devonbegi bir madrasa bino qildilar va Qadam yasovulboshi bir madrasa bino qildi va Ibrohimxo‘ja bir madrasa bino qildi va YUsuf yasavulboshi bir madrasa bino qildi va Husayn Muhammadboy bir madrasa bino qildi va Do‘st Olim bir madrasa bino qildi, va al-qozi ul-quzzot qozi Muhammad Salim bir madrasa bino qildi. Va Islomxo‘ja bir minorali madrasa bino qildi. Bu binolarning hammalari ul hazratning targ‘iblari bilan bo‘ldi»⁹⁸. Ushbu binolar qurilishiga vohaning mashhur ustalari jalb etilgan.

Akademik YAhyo G‘ulomov «Xiva shahri obidalari» monografiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva shahrining o‘zida 36 madrasa bino qilinganligini ko‘rsatib o‘tadi⁹⁹. XX asr boshlarida xonlikda jami 130 madrasa 1636 masjid bo‘lganligi¹⁰⁰ haqida ma’lumotlar bor. Bu esa qisqa davr ichida xonlikda katta me’moriy obidalar bo‘lganligidan va XX asr boshlarida Xivada me’morchilik qurilishlari yaxshigina rivoj topganligidan dalolat beradi. YUqorida aytilganidek, bunday qurilish ishlari Muhammad Rahimxon II Feruz davrida keng quloch yoydi va o‘ziga xos me’morchilik maktabi vujudga keldi.

Bu davrda barpo etilgan Xiva me’morchiligining yorqin namunasi sifatida mashhur me’moriy yodgorlik Islomxo‘ja madrasasi (unda kutubxona uchun alohida xonalar bo‘lgan), masjidi va minorasini alohida ko‘rsatish mumkin. Bu qurilish 1908-1910 yillarda taraqqiyarvar vazir Islomxo‘ja tashubbusi bilan bunyod etilgan. Islomxo‘ja minorasi O‘rta Osiyodagi eng baland va eng chiroyli minoralardan sanaladi. Madrasa va minora rangdor koshinlar bilan bezatilgan. O‘ziga xos Xiva uslubida qurilgan. Hozirgacha uning qurilish jarayoni, unda ishlatilgan buyoqlar tarkibi, qurilish uslubi tadqiqotchilar va sayyoohlар e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. SHuningdek, o‘rganilayotgan davrdagi me’moriy yodgorliklardan Evropa uslubida bunyod etilgan xon saroyi va xonning

⁹⁸ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий / Мерос. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 89.

⁹⁹ Гулямов Я. Памятники города Хивы. – С. 40-41

¹⁰⁰ Давлатёр Рахим, Шихназар Матрасул. Феруз шоҳ ва шоир кисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б.100.

Nurullaboydag'i yozgi qabulxonasini ko'rsatish mumkin. Saroyning ichki xonalari ganch o'yma naqshlar, rangdor koshinlar bilan shifti esa har xil buyoqlar bilan chiroyli bezatilgan, poli parketdan ishlangan¹⁰¹.

Bular Xorazmda me'morchilik hamda xalq amaliy san'atining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. SHu sabab azaldan dovruq taratgan Xorazm ustalari, me'morlari, naqqoshu rassomlari nafaqat O'rta Osiyo, balki SHarq va Evropada ham mashhur bo'lganlar. Ular tomonidan bunyod etilgan bunday nodir me'morchilik yodgorliklari haligacha o'z ko'rki, chiroyini yo'qotmagan. SHu sabab Xivaning dunyo ommasi tomonidan etti mo'jizaning biri, muzey shahar deya e'tirof etilishi ham bejiz emas.

Xon ushbu binolar qurilishiga vohaning mashhur ustalari, mohir ganchkorlar usta Xudoybergan hoji, usta Nurmat, yog'och o'ymakorlaridan usta Bobojon, usta Ismoil, usta Otashayx, Mulla Vafo, usta Zayniddin, Odina Muhammad va uning o'g'li usta Ro'zi Muhammad, usta Mulla Muhammad, usta So'fi Muhammad, naqqosh Abdulla jin, yog'och o'ymakori Nodir Muhammad, usta Ro'zmat arbob, naqqosh Abdulla Bolta o'g'li (Xorazm tarixchisi), yog'och o'ymakori Ota Polvon o'g'li va boshqalarni jalb etgan¹⁰².

Ogahiy bunyod etilgan binolarning qurilishiga, ba'zi kishilarning vafotiga bag'ishlab o'zbek va tojik tilida o'nlab ta'rixlar bitdi. «Ta'viz ul-oshiqin» devoniga kirgan ta'rixlarning ko'pchiligi Feruz zamonida bo'lib o'tgan voqealar tavsifiga bag'ishlangan: «Ta'rixi binoyi havliyi Amir ul-umaro Sayyid Mahmud to'ra», «Ta'rixi vafoti qozi Muso eshon», «Ta'rixi vafoti qozi Ibrohim eshon», «Ta'rixi vafoti Sayyid Muhammadxon», «Ta'rixi imorati masjidi Sayyid Ahmad to'ra», «Ta'rixi binoyi madrasai Muhammadniyoz devon», «Ta'rixi binoyi madrasai amir ul-umaro Sayyid Ahmad to'ra» va boshqalar shular qatoridandir¹⁰³.

¹⁰¹ Хоразм тарихи. – Б. 232.

¹⁰² Давлатёр Раҳим., Шихназар Матрасул. Феруз шоҳ ва шоир кисмати. – Б. 23.

¹⁰³ Давлатёр Раҳим., Шихназар Матрасул. Феруз шоҳ ва шоир кисмати. – Б. 23. Яна қаранг: Маннавият юлдузлари. Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар. –Т.: А.Қодирий, 1999. – Б. 45.

Xiva hunarmandlari tomonidan yaratilgan san'at buyumlari Eron, Arabiston, Hindiston, Turkiya, Rossiyaga olib chiqilgan. Bu nafis buyumlar hozirda jahon muzeylarining noyob ko'rgazmalaridan biri hisoblanadi. Lekin bunday beba ho madaniy meros hozirgi kungacha yaxlit holda saqlanib qolgan emas. Masalan, Xorazm yog'och o'ymakorlik va misgarlik sanatining nodir namunasi hisoblangan Xiva xonlarining taxti saroydan olib ketilib, 1874 yili Moskvadagi Orujeynaya palatasiga topshirilgan. Taxtni ilmiy tavsif etgan rus olimi V.Stasovning yozishicha: «Bu taxt Xiva hunarmand ustalari mahoratining cho'qqisi, ya'ni metallga gul solish hunarining betakror mahsulidir. O'rta Osiyo san'atining o'ziga xos va original ekanligini aytmoqchimanki, bu o'ziga xoslik va originallik Xiva xoni taxtida, uning go'zalligida, naqshlarida, yasalish texnikasi va ishlanishdagi nazokatida ko'rinib turibdi»¹⁰⁴.

Ichan qal'a obidalari atrofiga qurilgan madrasalar hamda Dishan Qal'ada xon buyrug'iga ko'ra, bunyod etilgan Evropa uslubidagi imoratlar ko'hna va qadimiylar Xiva shahri ko'runga ko'rkiga ko'rk qo'shib kelmoqda. SHu sabab 1967 yil O'rta Osiyoda ilk bor qadimiylar Xiva shahri tarixiy-memoriy yodgorliklar qo'riqxonasi «Muzey shahar» deb rasman elon qilindi¹⁰⁵, BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan tuzilgan va 350 ta me'moriy yodgorliklarni o'z ichiga olgan «Jahon merosi ruyxati»ga O'zbekistonning qadimiylar obidalari bilan bir qatorda Xivaning «Ichan qal'a» kompleksi ham kiritildi¹⁰⁶.

Ko'xna ark saroyi Ark-podshohning shahar ichidagi qo'rg'oni, qal'asi. Xivada Ark-hukmdor xon saroyi, uning qabulxonasi, arzxonasi yoki ko'rinishxonalar ma'nolarida tushinilgan. Xonlar qarorgohining yangi binolari, ya'ni Toshhovli saroyi va Nurullaboydagi ko'rinishxonalar qurilishi qadimgi xonlar qasrini “Ko'xna Ark” nomi bilan atashga sabab bo'lган.

Ark - katta cho'zinchoq to'rtburchak shaklda, son-sanoqsiz tor ko'chalardan iborat bo'lган qal'a. Uning kirish darvozasi oldiga bosh qorovulkxona qurilgan.

¹⁰⁴ Стасов В. Избранные сочинения. Т. I. – СПб., 1894. – С. 862 - 863.

¹⁰⁵ Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 1997.– Б.134.

¹⁰⁶ Рахимов М. ЮНЕСКОнинг ўзбек халқининг маданий ва тарихий меросини тиклашга кўшаётган ҳиссаси // Ўзбекистон тарихи. 2000. – №3. – Б.63.

Ichkarida xonning katta amaldorlari va og‘a-inilarining xonalari, otxona, porox saqlanadigan erto‘lada, yozgi va qishqi masjidlar, tangalar zARBxonasi, butun shahar ko‘rinadigan ikki darvozali minora (Oq SHayx bobo ko‘shki), soqchilar va xizmatchilar uchun xonalar hamda boshqa bino va hujralar bor.

Xonlar qarorgohi Ark binosining kirish darvozasi eshiklarida, Arzxona va yozgi masjid ayvonida bitiklar mavjud. Arkning bosh darvozasi tabaqalaridagi chiroyli o‘simliksimon naqshlar orasiga yashirilgan yozuvlar fors-tojik tilida nasta’liq xatida bitilgan.

Qabulxona ayvoni - matn marmar ustunbosh (o‘rtaboshi)ga nasta’liq xatida eski o‘zbek tilida bitilgan. Ogahiy qalamiga mansub bu she’r Sayyid Muhammadxonning (1856-1864) buyrug‘i bilan sangtarosh usta Islomxoja Xorazmiy tomonidan hijriy 1274, milodiy 1857-58 yilda mazkur ustunning oq marmar ko‘zagiga bo‘rtma tarzda bitilgan.

Naqshlar orasida ustaning ismi va sana yozilgan. Masjid ayvoni shimolga qaratilgan va oltita ustun ustiga tom bostirilgan. O‘ng va chap devorlarining chekkasi guldasta – minoralar bilan tugallangan. Ichki devorlar pastdan tepagacha koshin plitkalar bilan qoplangan. Naqshinkor koshinlarning asosini ko‘k va oq ranglar tashkil etadi. SHarqiy, janubiy va g‘arbiy devorlarning yuzalari yozuvlar oq rangda. Matn satrlari alohida va juft xona –kitobalarga joylangan.

YOzuvlar forsiy tilda, qiyalatma nasta’liq xatida matnlar uchraydi. Bunday arab, fors va turkiy tillarning she’riy va nasriy matnlarda birga qo‘llanilishi Xiva obidalari uchun xarakterli xususiyat bo‘lib, aksar yodgorliklarda bu holat kuzatiladi. Bunda, albatta, fors tilidagi bag‘ishlov she’rlarga e’tibor kuchli bo‘lgani seziladi. SHunday bo‘lsada, ba’zan forsiy jumlalarda faol muomalada bo‘lgan turkiy sintaksis va stilis –tika qoidalarining ta’siri kuchliligi bilinadi.

Mehrob atrofi nihoyatda nafis va go‘zal, shuning barobarida murakkab o‘simliksimon va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Mehrob ustidagi yozuvlarning bir-biriga charmashib ketganligi o‘qilishi murakkab kompozitsiyani

tashkil etgan. Bu yozuvlardan basmalla, “Alloh”, “Muhammad (s.a.v.)” va to‘rt xalifa ismlarini topish mumkin.

SHimoliy devordagi bitiklar Zamonning qudratli va shavkatli shohi Olloqulining saxovatidan peshonani sajdaga qo‘yuvchi dargoh yaratildi. Boshidagi tojida oltin va olmoslarni ko‘rib, har kishi quyoshmi yo oymi deb aytadir. Qurdirgan masjidining mehrobu minbaridan arshi a’logacha jannatdan bir qadam yo‘ldir. Ibodat qiluvchilar yuzi farishtalarniki kabi, uning fayzli eshiklari Makka darvozasi singari. Bu shunday Allohning uyiki, musaffolikda u huddi ikkinchi Marva musaffolikda Ka’badan farqi yo‘qdir, kim bo‘lsa ogoh binosining tarixini so‘rasam, davron o‘zi dedi: “SHoh Olloquli masjidining oliv binosidir”.

Bu masjidning chiroyli binosi Xoqonning xukmi bilan qurildi. Masjidi Aqsodan ham masaffo, yoqimli, To‘rt tomoni Ka’badan nur oladi. Osmon farishtalari tinmasdan Qumrilardek sanoxonlik qiladilar. YULduzlar koshinlar naqshiga rashk qilib, bir-birlariga hayrat ko‘zlari bilan boqadilar. Bino naqqoshning mahoratidir, Moniy ko‘zi kipriklarini yuladi. Mehribonning toqi xuddi qoba qavsayndek Barcha toliblarga o‘tgan ishlar namoyon bo‘libturadi. Eshigi tepasiga “La ilaxa illalloh” Rayxoni yaxshi xati bilan yozilgan. Ummuning qimmatbaxo durlari bilan bezangan zanjiridan “Xush kelibsizlar” degan qutlov sadolari yangraydi. Uning imomi hodislardan va’z aytib, Allohning kalomini unda xatm aylaydi. Allohning “soyasi” bo‘lgan podshoh o‘z sahovati bilan Alloh uyi masjid ning binokori bo‘ldi. Ollohquli shahanshohlik uzugin taqib, YAxshilik bilan hukmronligin boshladi. SHunday dilkashlikda ayon bo‘lgan nomini, Alloh adolati bilan kamolga etkazdi. Uning davlati barcha ofatlardan omon bo‘lsin. Xudoning lutfi bilan aytish tuyassar bo‘ldi. Agar chin ko‘ngildan hisob qilsang, uning qurilgan yilini bilib olasan.

II bob xulosasi

Misdan yasalgan va gul solingan buyumlardagi naqshlar an’anaviy bo‘lib, o‘simpliksimon va geometrik, juda kam hollarda xayvonlar shakllaridan iborat bo‘lgan. Xiva o‘ymakorlari ko‘proq islimiylar naqshlar qo‘llaganlar. SHuningdek, bu

buyumlardagi naqshlar orasida she'r, xalq maqollari, ustaning nomi ham yozilishi odat bo'lgan. Xiva o'ymakorlari ko'proq islimiylar qo'llaganlar, aylanma islumiylar, turg'unj deb ataluvchi va murakkab shakllar jamlanmasini ifodalovchi naqshlar ularning eng sevimlisi bo'lgan. Pahlavon Mahmud maqbarasida Xorazm yog'och o'ymakorligi san'atining XIV-XX asr namunalari saqlangan. SHerg'ozixona madrasasiga qarama-qarshi turgan darvozaxonaga o'rnatilgan qo'sh (ikki) tavaqali eshik naqshlarining chiroyligiga va o'yma yozuvlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Hozirda darvoza o'z joyidan olinib va yaxshiroq saqlash maqsadida majmua ichiga eksponat sifatida ko'chirilgan. Ma'lumotlarga qaraganda XIX asrning 40-yillarida Ichan qal'ada xon saroyidan tashqari 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va katta bozor bo'lgan. XX asr boshlariga kelib esa Xivadagi masjidlar soni 93 taga, madrasalar esa 63 taga etgan¹⁰⁷.

Ichan qal'a obidalari atrofiga qurilgan madrasalar hamda Dishan qal'ada xon buyrug'iga ko'ra, bunyod etilgan Evropa uslubidagi imoratlar ko'hna va qadimiy Xiva shahri ko'rkiga ko'rak qo'shib kelmoqda. SHu sabab 1967 yil O'rta Osiyoda ilk bor qadimiy Xiva shahri tarixiy-memoriy yodgorliklar qo'riqxonasi «Muzey shahar» deb rasman elon qilindi¹⁰⁸, BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan tuzilgan va 350 ta me'moriy yodgorliklarni o'z ichiga olgan «Jahon merosi ruyxati»ga O'zbekistonning qadimiy obidalari bilan bir qatorda Xivaning «Ichan qal'a» kompleksi ham kiritildi¹⁰⁹.

¹⁰⁷ История Хорезма. – Т.: Фан, 1976. – Б. 88-89.

¹⁰⁸ Абдурасулов А. Хива (тариҳий-этнографик очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 1997.– Б.134.

¹⁰⁹ Раҳимов М. ЮНЕСКОнинг ўзбек халқининг маданий ва тарихий меросини тиклашга кўшаётган ҳиссаси // Ўзбекистон тарихи. 2000. – №3. – Б.63.

III BOB. Xiva epigrafikasi va uning mazmun mohiyati

3.1. Xiva Ichan - Qal'a epigrafik yozuvlari va uning mazmun mohiyati

SHaharning kirish darvozasi u vaqtida Toshhovli saroyining (1832-1838 yy.) janubi - sharqiy burchagi atrofida bo‘lgan. Bu darvozaning haqiqatda ham shu erda ekanini Abulg‘ozining “SHajarayi turk” asaridan ham bilsa bo‘ladi. Unda Abulg‘oziy Buxoro xoni Abdullaning 1591 yilda Xivaga yurish qilganida, mudofaaga tayyorlangan Po‘lod Polvon darvoza deb nom olgan bu darvozaning oldida bunyod qilingan mahalla bugungi kunda O‘r mahallasi nomi bilan yuritiladi.

Bu darvoza ko‘p marta ta’mirlangan, avvalgiga darvoza ichki sathining uzunligi 15 metr, eni 5,2 metr bo‘lgan, keyinchalik Olloqulixon madrasasi qurilishi davrida darvozaning oldida qo‘srimcha 33 metr uzunlikdagi darvozaxona quriladi. Endi shahar darvozaxonasidan kirish uchun uchta katta darvoza eshiklaridan o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Bu darvoza oltita gumbaz bilan bostirilgan bo‘lib, har gumbaz ostida (janub va shimoliy tomondan) ikkitadan hujralar qurilgan, bu xujralar va darvoza yo‘laklari bozor vazifasini bajargan. Darvozaxonaning har ikkala tomoniga o‘rnatilgan katta darvoza eshiklari ustiga chiroyli koshinlar bir xil o‘lcham va mazmundagi yozuvlar yozilgan. YOzvlar 27x27 sm o‘lchamli oltita va 8 x 27 sm. O‘lchamli ikkita koshin g‘ishtga oq bo‘yoq bilan ko‘k rang ustiga arab yozuvining ta’liq xatti uslubida bitilgan. YOzuvning yuqori qismidagi birinchi satrida arab tilida quyidagi duo yozilgan.

Allahumma ij’al hadal baba maftuhan abadan bil birri val g‘ayri val barakati
bihurmati arbobil futuhi va ashobil ma’rifati

Tarjimas:

Ey parvardigor, bu eshikni bizlar uchun xayr barakat va nasibalar keltiruvchi arboblar va ashoblar va ilmi ma'rifat bilan ochuvchi kishilar uchun ochgil Pastki ikkita qatorda forsiy tilda she'riy ta'rix bitilgan bo'lib, u shunday o'qiladi.

Bahri xatmi imorati in bob,

Durri noyob aql tahsin suft,

YA'ni ta'rixi u navhei Jalil,

Bobi toza "shahri Hivaq" guft

Bu darvozaning qurib tamomlanishiga, Tahsinga sazavor aql egasi noyob durlarni terdi. Uning ta'rixini Jamiljon yig'lab "Xivaq shahri" ning yangi darvozasi, dedi.

Ushbu she'rning oxirgi misrasidagi "SHahri Hivaq" jumlasiga ta'rix yashiringan, uning abjad hisobidagi echimi $116+600+200+5+300=1221$

Hijriy 1221 yil, melodiy hisoboti bilan 1806 yilga to'g'ri keladi. Demak, darvoza 1804 yilda taxtga chiqqan Eltuzarxon davrida qaytadan qurilgan.

1873 yilda Xiva xonligini bosib olgan Rossiya armiyasining boshlig'i, general ad'yudant Fon Kaufmanning buyrug'iga bilan Xiva xonligining ko'rinishlarini foto tasvirga tushirgan podporuchik Grigoriy krivsov, bu darvozani – "Gul darvoza, haqiqatda ham bu darvoza guldor, ya'ni g'ishtlari rangli naqshlar bilan bezatilgan" deb yozadi.

SHaharning yiqilib xarob bo'lgan qal'asi Muhammad Amin inoq davrida qayta tiklanishi bilan bir vaqtda uning ichki sahni ham ko'proq shimolga tomon kengaytiriladi. SHuning natijasida ichki shahar hozirgi ko'rinishga keladi, faqat darvozalar asta-sekinlik bilan to'rttaga etgan. Bu davrda sharqiy darvozadan tashqari, yana shimoliy va g'arbiy darvozalar quriladi. SHimoliy darvoza oldida xonning bog'chasi va bog'cha hovuzi bo'lgani uchun Urganch darvoza, Urganchga shu darvozadan chiqilgani uchun Urganch darvoza nomlarini oldi. G'arbiy darvoza

oldida SHermuhammad ota masjidi va hovuzi bo‘lgani uchun Ota darvozani Eltuzarxon, Bog‘cha darvozani Rahimqulixon pishgan g‘ishtdan qurdirgan.

Muhammad Amin inoq boshlagan xonlikdagi xalqlarni birlashtirish ishini uning nevarasi Muhammad Rahimxon I muvaffaqiyatli amalga oshirdi. U xonlikdagi o‘zbek va turkman qabila va urug‘larini o‘ziga bo‘ysundirdi. Avval Orol va xonlik shimoliy sharqidagi qoraqalpoqlarni, keyin qozoqlarni o‘ziga tobe qildi. Sirdaryo bo‘yidagi qozoq xonlarni ham o‘zi tayinlaydigan, ulardan boj oladigan bo‘ldi. Bu davrda Xiva xonligi mustaqil, qudratli davlatga aylandi. Ko‘hna Akrda zARBxonaga asos solinib, Muhammad Rahimxonning nomidan oltin va kumush tangalar zARB qilindi. Oltin tangalarning sifati eng yuqori bo‘lib, uning old tomoniga “Abulg‘oziy Muhammad Rahim Baxodirxon”, orqa tomoniga “zARB dorus-saltana Xivaq, 1234” so‘zlari bitilgan edi.

Moskva qurol-aslaha muzeyi fondida saqlanayotgan Xiva xonining taxti ham 1816 yilda Muhammad Rahimxon I davrida tuzatilgan. Bu taxt 1873 yilda Xivada bosib olingan o‘lja sifatida Rossiyaga olib ketilgan Taxt yog‘ochdan ishlanib, sirti yupqa kumush bilan qoplangan va islamiy naqshlar o‘yilib, sayqal berilgan. Taxtni ilmiy tavsif etgan rus olimi V.V. Stasov shunday yozadi. “Taxtning hamma joyi O‘rta Osiyodagi gul va o‘simliklarni o‘zida namoyon etuvchi juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu taxt Xiva ustalarining mahorat cho‘qqisiga ya’ni metallga gul solish san’atining betakror mahsulidir”.

Taxtning orqa suyanchig‘i tepasi madohil naqshi shaklida ishlangan bo‘lib, unga arab alifbosida, nasta’liq xatti yozuvida shunday so‘zlar bitilgan.

“Muhammadrahim Xorazmshoh zamoni ming ikki yuz o‘ttiz birda Xivaq viloyatida YUsuf Muhammad kaminaning tarh (loyiha) bitgani” Hijriy 1231 melodiy 1816 ga to‘g‘ri keladi. Madohil (uch barg) naqshning ramziy ma’nosi, dunyoning abadiyligi, uch bargi yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amalni bildiradi. Jamiyatning asosi bo‘lgan uch tabaqa, uch qatlamni – olimlar, dehqonlar va navkarlar birligini anglatadi.

Muhammad Rahimxon I davrida qurilib, bugungacha saqlangan me'moriy obidalaridan biri Pahlavon mahmud maqbarasi bo'lsa, ikkinchisi uning akasi To'tkul viloyatining xokimi Qutlug‘ Murod inoq tomonidan 1806-1811 yillarda qurilgan ulkan madrasadir.

Qutlug‘ Murod inoq madrasaning qurilish uslubi XVI-XIX asr Buxoro me'morchiligi an'analariga o'xshamaydi. CHunki madrasaning guldastalaridagi burchakdagi minoralar sirlangan qovariq bo'rtma naqshli terrakotalar, kirish eshigi ustidagi balkondagi ganchdan ishlangan muqarnas naqshlar, ganch o'ymakorligi san'atidagi naqshlarning Buxoro me'morchiligiga o'xshashligi, bu qurilishda Buxoro ustalari ham qatnashgan bo'lishi mumkin, degan xulosani beradi. Ikki qavatli pishiq g'ishtdan qurilgan bu madrasa zamonasining eng katta va badavlati edi. Unda 81 hujra, darsxona, masjid bo'lib masjidning kirish eshigidagi yozuvdan, uning hijriy 1221 melodiy 1806 yilda qurilgani ma'lum bo'ladi. Madrasa va darsxona kirish eshiklarining kesagisi va tavaqalari ikki qatlamlili nihoyatda chiroyli geometrik va o'simliksimon o'yma naqshlar bilan bezatilgan.

Madrasa ichki hovlisida er osti hovuzi – sardoba mavjud qariyalarning so'ziga qaraganda, ushbu sardoba shaharliklarni qamal vaqtida ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

Xiva xonlari arxividan ma'lum bo'lishicha, madrasa uchun 24634 tanob er vaqf qilingan. Madrasasining 1858 yildagi daromadi 1880 botmon g'allani tashkil etgan. Ushbu madrasani bino qildirganida Qutlug‘ Murod inoq vasiyat qilgan bo'lib, unga ko'ra vafotidan keyin uni shu erga keltirib dafn qilishlari kerak edi. Uning vafoti tarixi quyidagicha bo'lган: qadimda gullab yashnagan zaminning bezagi va jannatning faxri bo'lган Marv viloyati Buxoroliklar tasarrufiga tushib qolgach, beparvolikdan xarob va vayron bo'ladi. Muhammad Rahimxon Marvni o'z tasarrufiga o'tkazgach, suvsizlikdan xarob bo'lган bu vohani obod etish uchun, Murg'ob daryosidagi Bandi Sulton to'g'onini berkitishni sevimli akasi qutlug‘

Murod inoqqa topshiradi. Inoq bu ishga kirishib Marvga keladi va ikki marta to‘g‘onni berkitadi, lekin to‘g‘on bo‘zilib suv oqa boshlaydi.

Bu orada qo‘s Shimcha kuch ham etib keladi, lekin inoq betob bo‘lib, yotib qoladi. Xonning buyrug‘i bilan Xivaga qaytishda kasali avjiga minib, hijriy sana 1239 yil ramozon oyining 15 kunida (1824 yil 22 may) Tajan daryosi bo‘yida vafot qiladi. Uning vasiyatiga ko‘ra vafotidan keyin o‘zining madrasasiga dafn qilinishi kerak edi. Lekin, Xiva shahrining azaldan odat tusiga kirib qolgan bir qoidasi bor edi-ki, unga ko‘ra shahardan tashqaridagi kishi shahar ichkarisiga dafn qilinmas edi.

Xiva me’moriy obidalari rivojlanishining to‘rtinchi davri XVIII asrning to‘rtinchi choragida boshlanadi.

Bu darda Xiva chuqur inqirozdan chiqqan edi. Muhammad Amin Inoq Xivaning yangidan qurilishini boshlab beradiki, undan keyin avlodlari bu ishni ko‘ngildagidek amalda davom ettirdilar. Ayniqsa, 1825 yilda taxtga ko‘tarilgan Olloqulixon mamlakatning rivojlanishi, shaharsozlik borasida ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Buning buyrug‘i bilan Muhammad Yusuf mehtar tomonidan hijriy 1251 (1834-35 yy) yilda Toshhovuz qal’asi 1836-1838 yillarda Kot qal’ada Sulton Uvays Qaraniy va SHayh Muxammad oxund Xorazmiy maqbaralari, shunnigdek, Qo‘ng‘irotda Sulaymon Boqirg‘oniy Hakim ota maqbaralari qayta qurildi.

Olloqulixon otasi Muxammad Rahimxon I tomonidan Qutlug‘ Murod inoqning jasadini kiritish uchun yiqtirgan qal’aning devori o‘rnida 1832-1838 yillarda katta madrasa va karvonsaroy va madrasaga vaqf qilib qo‘yadi. Bu joy karvonsaroy va madrasaga vaqf qilib qo‘yadi. Bu joyda karvonsaroy va madrasa uchun eng qulay joy bo‘lib, karvonsaroy keyinchalik bojxona vazifasini ham o‘tagan.

XIX asrning ikkinchi choragida Xiva xonligi hududlari Sirdaryodan Qushgacha, Afg‘oniston chegaralarigacha etdi. Dehqonchilikda sug‘orish tarmoqlari yaxshilandi va kengaydi. Mamlakatning barcha hududlarida ta‘mirlash ishlari rivojlandi, poytaxt Xivada katta qurilish ishlari amalga oshirildi.

Koshinpažlik nihoyat darajada tez o'sdi va san'atning bu turi rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna Ark koshinlar bilan bezatildi, ulkan Toshhovli saroyi barpo qilindi. XIV asr yodgorligi sayyid A'louddin, XVII asr yodgorligi Tohir eshon maqbaralari va boshqa ko'pgina obidalar ta'mirlandi. Arabxon (1616y) Muhammad Amin inoq (1765 y) madrasalari qaytadan pishgan g'ishtdan qurildi. 1842 yilda Xivaning atrofini o'rab turuvchi Deshon qal'a (tashqari qal'a) devori bunyod etildi.

1836 yilda Orenburg hokimi general ad'yutant Perovskiy Xiva xoni Olloqulixon zimmasiga bir necha vazifalarni qo'ydi. 1. Rus asirlarini bo'shatish 2. Rus savdogarlariga sharoit yaratib berish 3. Qirg'iz va qaysaqlarning ichki ishlariga aralashmaslik Olloqulixon bu shartlarni bajarmaydi. Buning natijasida Xiva savdogarlari uchun Rossiya bozorlari bekilib qoladi, ular o'z mollarini boshqa mamlakatlarga olib borib sota bilmaydilar. Boshqa mamlakat savdogarlari esa Buxoro va Qo'qon kabi sharq davlatlaridan o'z ehtiyojidagi mollarni sotib oladilar. Mana shu voqealar Olloqulixonni Deshon-qal'a devorini qurishga majbur qildi. 1842 yilda qurilgan bu qal'ani XIX asr rus tarixchi olimlari o'zlarining bosqinchilik siyosatini yashirish maqsadida, turkman yovmutlarining tez-tez qilib turadigan hujumlaridan saqlanish uchun qurilgan, deb yozishadi. Bu qal'a avvalgi qal'ani tashqaridan o'rab olgani uchun, eski qal'a ichkarida qoladi va Xivaliklar tili bilan "Ichan - Qal'a", ikki qal'a devori o'rtaSIDagi shahar esa "Deshon qal'a" (tashqari qal'a) nomini oladi.

Ogohiy qal'aning qurilishi to'g'risida SHunday yozadi – sana ming ikki yuz ellik sakkizda (1842 y) bars yili hazrati sohibqironi jannatmakonning royi ixtirol oroyi bu amrga muqtazo bo'ldikim, Xivaq qal'asining atrofini aylana bir hisori vase va devori refe' baland va sahni keng qal'a qo'rg'oni bino va barpo qildirgan. Bu ishni Olloqulixon muhammad YAqub mehtar Otamurod qushbegiga topshirdi. Qal'a devorining qurilishi 30 kun davom etib, unda xonlikning ishga yaroqli barcha fuqarosi qatnashdi. Ogohiy qal'aning qurilishiga yigirma misradan iborat bir tarix bitgan, uning oxirgi ikki misrasi shunday

Ogahiy piri xiraddin qildi tarixin savol,

Aylab izxori farah dedi. Hisorixush bino

“Hisori xush bino” jumlesi tarix moddasi bo‘lib, shunday echiladi.

$$1+50+2+300+6+600+200+1+090+8=1258$$

1258 hijriy yil, 1842 yilga to‘g‘ri keladi.

Olloqulixon tomonidan Xiva shahrida boshlangan ulkan qurilishlar, Muhammad Aminxon davriga (1846-1855) kelib nihoyasiga etdi. YAngi zamonning mashhur xonlaridan sanalgan muhammad Amin Xorazmning qadimgi shuhratini tiklay boshladi. Atrofdagi barcha yovmutlarni bo‘ysun dirdi va xonlikning daromadini oshirdi. Taxtga o‘tirgan zahoti u turkmanlarning mard qabilalaridan biri soriqlar ustiga yurish boshladi. Marv qal’asini olti marta zabt qildi. Soriqlarni bo‘ysundirib, boj to‘lashda bo‘yin tovlagan takalar ustiga yurdi.

Xonligining to‘rtinchchi yilida Arkning qibla tomonidla bir madrasa va minora qurilishini boshlatdi. Uning qurilishini Bekniyoz devonbegi va muhammad karim Xorazmning mashhur ustalarini topib ishga mashg‘ul bo‘ldi. Madrasa uch yildan keyin bitdi. Xon xushxol bo‘lib, Bekniyoz devonbegiga katta to‘y va shahona ziyofat anjomini tayyorlatdi. Bu to‘yda sarpo kiyib, in’om olmagan kishi qolmadi. Fuzalo va shuaro ko‘p qasida va tarixlar aytib in’omlar oldilar “madrasa peshgohida bir minorai oliy bino qildirdilarkim, sutun yanglig‘ gardun ayvoniga hamsar (falak ayvonining ustunidek), balki kayvon saqifiga barobar edi. (Osimon gumbaziga barobvr edi.)”

Sayyid Muhammadxon o‘z zamonasida (1856-1864 yy.) Arkni qayta ta’mirlatdi va Deshon Qal’aning Nurul laboy bog‘i nomi bilan mashxur bog‘dagi yangi imoratlarning kun chiqarida Hasanmurod qushbegi rahbarligida bir ko‘rinishxona qurdirdi. SHu yili, ya’ni hijriy 1276 melodiy 1859 yilda xon Arkdan ko‘chib Nurullaboy hovlisiga keldi. SHundan keyin Ichon-Qal’adagi Ark, xalq tilida Ko‘xna Ark nomini olgan.

Xivada madaniy, ma'rifiy va quruvchilik faoliyatini Muhammad Rahimxon II davrida (1864-1910yy.) yanada rivojlandi. Feruz taxallusi bilan she'rlar yozgan bu ma'rifatparvar hukmdor, o'z atrofiga qirqqa yaqin shoir va bastakorlarni to'plab, O'rta Osiyoda birichi (1874yilda) matbaa – toshbosmada kitob nashr qilishni yo'lga qo'ydi. U qadimdan an'ana bo'lib, ustidan shogirdga

1908-1910 yillarda Bosh vazir Islomxoja tomonidan qurilgan. Islomxoja (1870-1913) Muhammadrahim Soniy davlatida eng nufuzli va obro'li davlat arboblaridan edi. Dastavval Hazarasp viloyati xokimi, 1898 yildan vafotigacha Bosh vazir lavozimida ishlagan. Buyuk islohotchi va ma'rifatparvar davlat arbobi.

Davlat ishlaridan tashqari, u keng ko'lamda savdo ishlari bilan, mato ishlab chiqarish, paxta tozalash va shu kabi tijorat va sanoat ishlari bilan shug'ullangan. Mazkur madrasa va ulkan minora shu mablag'lardan qurilgan ,bo'lib, ular Islomxo'ja obro'yini tasdiqlab turuvchi ramziy inshootlar sifatida mashhur. Madrasa katta gumbazi va minoraning qubbalari 1997 yilda O'zbekiston respublikasi bиринчи Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan ta'mirlanib, tilla suvi bilan qoplandi.

Madrasaning old tomoni ikki qavatli bo'lib, baland peshtoqi binoni xashamatli qilib ko'rsatib turibdi. Madrasaning kirish eshigini ustiga baxshida yozuv bitilgan marmar lavha mahkamlanib, unga madrasaning qurilish tarixi yozilgan. YOzuv turkiy tilda. Nasta'liq xatida bitilgan. Matn oxiridagi bir necha satrlar fors-tojik tilidadir. Bitik yaxshi saqlangan bo'lib, unda xatolar uchramaydi.

Baxshida bitik madrasa darvozasi tepasida qadamalangan kulrang marmar lavhaga yozilgan. SHe'riy matnning har bitta satri marmar lavh yuzasini teng taqsimlab chiqishdan hosil bo'lган alohida-alohida to'g'ri burchakli katakchalarga bitilgan.

Masjid mehrobi koshinpazlik va ganch o'yma naqshlari bilan bezatilgan. Mehrobning ustidagi yozuvlar arab tilida suls xatida bitilgan. Madrasa koshinlarini tayyorlagan usta o'z nomini kirish eshigining chap tomonidagi koshin plitkalardan

bittasiga yozib qoldirgan. Undagi sanadan madrassa qurilishi tugagan bo'lsa ham unga bezak berish yana bir yil davom qilgani ma'lum bo'ladi.

Minora o'zining hashamati va chiroyi bilan kishini hayratga soladi. Minoraning qurilishiga shoir Niyoziy tarix bitgan va uni xonning buyrug'i bilan marmarga yozib, minoraning erdan chamasi o'n metr balandligida o'rnatishgan. Marmardagi yozuv nasta'liq xatida. Tarixiy bitikdan so'ng Xoja Abdulloh Ansoriyning munojatidan to'rt misra va yana hozircha muallifi aniqlanmagan "Lavh" va "Qalam" ta'rifiga bag'ishlangan to'rt misra she'r fors-tojik tilida keltirilgan. Matnda xatolar yo'q. Ammo, ayrim so'zlar turkumi borki, ular mahalliy (xorazmcha) til qoidalari asosida yozilgan. Bu erda gap turk tilining o'g'uz guruxi fonetikasi haqida borayapti va ular ko'pchilik hollarda talaffuzda va ayrim so'zlar esa yozilishida ham mahalliy ko'rinishda uchraydi.

Qorixona - Ichan qal'a tarkibidagi me'moriy yodgorlik (1863-1877) Pahlavon Mahmud majmuasi joylashgan qabristondan g'arbroqda ko'cha bo'y lab yonmayon joylashgan. Qorixonaning ko'cha tomondan tarzlari jamoat binolari me'morchiligi uslubida bunyod etilgan. Alovida –alovida qurilgan 4 binodan iborat, ya'ni to'rt qorixonadan har birining alovida hovlisi bo'lgan. Asosiy o'qdagi peshtoq, miyonsaroy va ochiq hovli ayvon bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri turar joylar bilan bog'langan. Bino balxi gumbazlar bilan, ayvonlar tekis toqlar bilan yopilgan. Peshtoqlarining tepe dandonalari yashil ko'zmunchoq (bantik)lar bilan bezatilgan.

Abdurasulboy madrasasi Sayyid ota masjidining yonida joylashgan. Madrasa anchagina keng (30x65 m) bo'lib, tarkibiga ikki hovli kiradi G'arbiy xovli (6,9x3,6 m) ning ikki burchagida ikkitadan chorsu xona, janubda gumbaz tomli masjid, shimolda balxi gumbazli, ikki eshikli xona bor. SHarqiy xovli (7,1 x 5,5m) ham hujralar bilan o'ralgan. Dahliz tepasidagi kichik xonalar, talabalar yashaydigan va boshqa hujralar yualxi gumbazlar bilan yopilgan. Devorlari silliqlangan g'ishtdan terilgan. Peshtoqi va dandonasiga yashil koshindan bezaklar ishlagan. Madrasaga kirishda gujum yog'ochli eshik o'rnatilgan. Uning o'ng palagining ustiga urilgan yog'ochida ustaning ismi bitilgan. Ammo yozuvning ustaning ismi bitilgan. Ammo

yozuvning ikkinchi qatori saqlanmagan. SHu yozuvning pastki qismida sana ham bitilgan.

Sayyid Alouddin maqbarasi –Ichan qal’asidagi me’moriy yodgorlik (XIV asr). Bu erdagи arxitektura yodgorliklari ichida eng qadimiylaridan biridir. U. Qal’aning g‘arbiy darvozasiga yaqin masofada, Muhammad Niyoz devonbegi madrasasining sharqiy tomonida joylashgan. Mazkur bitiklar va rivoyatlarga ko‘ra, hojagon – naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi so‘fiy Amir Kulol (vaf. 1371) tomonidan ustozи shayx Alouddin kabri ustiga qurilgan. Maqbara (13,0x10,4 m) peshtоq, ziyoratxona va go‘rxonadan iborat . XIV asr 1-yarmida peshtоqi janubga qaragan go‘rxona (XVII asr) qad rostlagan. Xonalar gumbaz toqli. Ichkarisi ganj suvoq qilingan. Go‘rixonadagi sag‘analar bo‘rtma koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. Sayyid Alouddin qabri supa shaklida bo‘lib, burchaklarida bejirim ustunchalar bor. Ular piromoni bandi rumiy deb ataluvchi handasaviy shaklga ega. Qabr supasi ustida ikki kichik sag‘ana o‘rnatilgan. Qabrdgi chiroyli koshinlar Xivada yagona bo‘lib, uning o‘xhashi Ko‘xna Urganchdagi SHayx Najmuddin Kubro maqbarasida, Samarqaddagi Temurning singlisi turkon oqo maqbarasi peshtоqida va SHohi Zindadagi Qusam ibn Abbos qabrida uchraydi. Supa devorlaridagi madoxilsimon namoyon nafis ishlangan. Qulab tushgan peshtоqi 1825 yilda me’mor Hubbiqulicoja o‘g‘li Hamidxoja tomoindan gumbaz, sag‘ana, ziyoratxona devorlarida nasta’liq xatida binoning qurilishi va me’morlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan. Qabr ustidagi ikkita sag‘anachaning bosh va oyoq uchlarida oppoq harflar bilan bitilgan yozuvsular ko‘rinib turibdi. Bu yozuvsularining to‘rttalasida ham bir xil mazmundagi so‘zlar yozilgan bo‘lib, ular bir-birlarini to‘ldiradi. YA’ni bir misradagi tushib qolgan harf yoki so‘z ikkinchi joydagi yozuvsular uchraydi. YOzuv arab tilida suls xatida bitilgan. Diakritik belgilar deyarli qo‘yilmagan. Maqbaraning janubiy va g‘arbiy devorlarida ham yozuvsular bo‘lib, ular oq devorga qora rang bilan bitilgan. Bu yozuvsular ham ta’rix bo‘lib, maqbaraning ta’mirlangan vaqtidan xabar beradi. Ular nasta’liq xatida amalga oshirilgan.

SHerg‘ozixon madrasasi (1719-1726) ichan Qal’aning Janubiy tamonida, Pahlavon Mahmud majmasi ro‘parasida joylashgan. U xiva xoni SHerg‘ozixon xurosonga qilgan yurishi (1719) chog‘ida qurila boshlangan. SHerg‘ozixon madrasasi (1719-1726) Ichan qal’annig janubiy tamonida, Pahlavon Mahmud majmuasi ro‘parasidajoylashgan. U Xiva xoni SHerg‘ozixon (1714-1727) Xurosonga qilgan yurishi (1719) chog‘ida qurila boshlagan. Madrasaning g‘arbidagi bosh tarziga tutash qilib qurilgan kichik go‘rxonaga xon jasadi dafn etilgan. Madrasa bosh tarzi 2 qavatli. Ulkan peshtoq orqali kiraverishda gumbazli miyonsaroy, uning 2 burchagida chortoq tarhli, gumbazli masjid va darsxonalar joylashgan. Miyonsaroy tepasidagi kichik hujralar talabalar uchun yotoqxona bo‘lgan. Devorlariga tochka, taxmon, kosamonlar ishlangan. Hovli atrofida oldi ayvonli 1 qavatli qator hujralar bo‘lib. Hovli o‘rtasida hovuz joylashgan. Madrasa bezaklari saqlanmagan. YOhud bino umuman bezatilmagan.

YOzma manbalar ma’lumotiga qaraganda, SHerg‘ozixon ilmi tolib uchun ko‘p ishlar qilgan, zamonasining ko‘p olimlari, fuzalo va shoirlarini yiig‘ib, ilmiy-adabiy muhit tashkil etgan. Mazkur madrasa barpo bo‘lgandan so‘ng uning ta’rxi ham “ Maskani fozilon” (“Fozillar uyi”) deb topilgan. Bu madrasa Pahlavon Mahmud maqbarasi oldida qurilgani ham ma’lum ma’noga ega bo‘lsa kerak, zero, xon bu joyni muqaddas deb hisoblagani inobatga olinganidan dalolat bermoqda. “Maskani fozilon” o‘rtta osiyolik va qozog‘istonlik bir qancha yoshlarning iste’dodlari baravj rivojlanishida katta rol o‘ynagan. Turkman xalqining buyuk shoiri Maxtumquli-Firog‘iy (1733-793), qozoqlarning mashxur so‘fiysi, murabbiy Beket Mhmad (1750-1813) va qoraqalpoqlarning ulug‘ shoiri Ajiniyoz (Hoji Niyoz Qo‘sinboy o‘g‘li) (1824-1878) shular jumlasidan.

SHerg‘ozixon madrasasi kirish eshigining ikki tomonidan marmar toshga she’riy tarix yozilgan, ularning ikkisi ham bir xil mazmunda. YOzuv nast’aliq xatida bitilgan Diakritik belgilar izchil qo‘yilgan bo‘lib, matnda xatolar uchramaydi. Madrasaning kirish darvozasi tepasida kulrang marmar lavhada vaqfxona nasta’liq xatida bitilgan. Diakritik belgilar izchil rivishda qo‘yilgan.

Marmarning tepe qismidagi chap tomoni qisman shkastlangan. SHu sababli to‘rt qatordagi oxirgi misralarda ba’zi so‘zlar o‘qilmadi. Matnda bir-ikki xato kuzatildi. Madrasa peshtoqi bosh ravoqining tepe qismi (timpani)da bir marmar tosh o‘rnatalgan. Unda ham yana bir vaqfnoma nasta’liq xatida bitilgan. Vaqfnomada boshqa joydagi erlarni madrasa foydasiga berilgani she’riy tarzda yozilgan. Diakritik belgilar izchil qo‘yilgan bo‘lib, matnda xatolar uchramaydi. Qozikalon Madrasasi Xivaning ichan qal’a tarkibida bo‘lib, jome masjid va matniyoz devonbegi madrasasi oralig‘ida joylashgan. Madrasa qozikalon Muhammad Salim Oxun tomonidan qurilgan. (1905 yil)

Qozikalon madrasasi – Xivaning Ichan qal’a tarkibida bo‘lib, Jome masjid va Matniyoz Devonbegi madrasasi oralig‘ida joylashgan. Madrasa qoziqalon Muhammad Salim Oxun tomonidan qurilgan (1905). Bino to‘rburchak tarxli (32,5x 23,4 m), peshtoq gumbazli, darsxona (tarhi 4,7x 4,7 m), hovli (16,6x 9,8 m) dan iborat. Bosh peshtoqining ikki burchagiga guldastalar ishlangan (ular yashil va ko‘k koshinlar bilan bezatilgan). Peshtoq orqali miyonsaroya kiriladi. Miyonsaroyning ikki yonida masjid va darsxona joylashgan; xovli atrofini balxi gumbazli bir va ikki xonali xujralar egallagan, janubiy tomonida qo‘sishmcha xonalar ham bor.

Madrasaga kiraverish eshigi tepasidagi arkasimon taxparchinlar mavjud. Ana shu taxmonlarga qadamalab terilgan uncha katta bo‘lmagan toshtaxtachalarda islimiy naqshlar bo‘lib, o‘zida madrasa qurilishi sanasiga oid tarix – xronogrammani ifodalagan she’r ham naqshlarning bir bo‘lagiga aylanib ketgan. Oq rangdagi harflar moviy fonda bitilgan, xati- nasta’liq.

Kiraverishdagi peshtoqning ichkari tomonida (hovliga qaragan qismida) yuqorida tavsiyelab o‘tilganiga o‘xshash tag‘in bitta kvadratsimon parchin o‘rnatalgan. Bunda ham nasta’liq xatida bitilgan bag‘ishlovnoma kitoba (she’r) bor. Oq rangdagi harflar moviy fonda bitilgan, diakritik belgilar muntazam qo‘yilgan.

3.2. Pahlavon Mahmud maqbarasidagi epigrafik yozuvlar

Markaziy Osiyodagi o‘zbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning muqaddas ziyoratgohi hisoblanadigan Pahlavon Mahmud maqbarasidir.

Xiva me’moriy obidalari ichida eng chiroylisi va hashamatlisi sanaladigan bu maqbara Ichan-Qal’aning o‘rtasiga joylashgan bo‘lib, u gumbazining balandligi (25 m) sababli shahardan 5-6 chaqirim naridan ko‘rinib turadi. Maqbara butun XIX va XX asr davomida olimlarning diqqatini o‘ziga jalg qilib keldi. 1873 yilda Xivada bo‘lgan rus olimi L. Kostenko shunday yozadi: Eng chiroyli imorat va shuning bilan birga eng muqaddas joy Xivada Polvon ota masjididir. Bu avliyo kishi bu erda huddi Buxorodagi Bahouddindek e’zozlanadi. Gumbazining ustidagi oltin qubbasi juda chiroyli qurilgan. Maqbara Muhammad Rahimxon I tomonidan qayta qurilgani sababli, butun XIX asr davomida va XX asr boshida Xiva xonlari Qo‘ng‘irot sulolasining go‘rxonasi deb ham e’zozlanadi.

Akademik YA.G‘.G‘ulomov va adabiyotshunos olim T. Jalolovlarning asarlaridan Pahlavon Mahmudning mashhur polvon, hunarmand po‘stindo‘z usta va buyuk faylasuf shoir bo‘lganini bilamiz. Uning hunarmand otasi piryorvali, Xorazmning poytaxti Urganch CHingizzon bosqinidan keyin xarobaga aylantirilgach, homilador xotini bilan bozori yaxshiroq Xivaga ko‘chib keladi. Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘iga kelganda, hijriy 645, melodiy hisobi bilan 1247 yilda Piryorvalining xotini o‘g‘il tug‘ib beradi. CHaqaloqqa Mahmud deb ism qo‘yadilar. Mahmud yoshlidan ota kasbi po‘stindo‘zlik va telpakdo‘zlik hunarini puxta o‘rganib, jismoniy jihatdan juda baquvvat, pahlavon bo‘lib etishadi. Jismoniy va ma’naviy kamolatini o‘zida mujassamlashtirgan bu yigitning shuhrati Movarounnahr va Xurosandan tortib Eron va Hindistongacha etib boradi. Xorazmning ko‘p shaharlariga, hatto Hindistonga borib mashhur polvonlar bilan kurash tushadi, lekin hech erda engilmaydi, butun umri elkasi erga tegmay, mamlakatni bosh polvoni bo‘lib qoladi. SHu sababli xalqlar o‘rtasida juda ko‘p rivoyatlar paydo bo‘lib, uni mashhur polvon, xalq g‘amxo‘ri, ajoyib vatanparvar va shoir sifatida tilga olishadi. Xalq unga “Pahlavon” laqabini berib uni “Pahlavon

Mahmud”, “Polvon ota”, “Hazrati Mahmud”, “Polvon ota”, “Hazrati Povon pir” deb e’zozlaydi. U xivaliklar uchun shaharning bosh homiysi – piri, maqbarasi esa shaharning langari hisoblanadi. Bu haqda shunday rivoyat bor.

Xiva shahrining bunyod qilinishi to‘g‘risida xivalik Xudoyberdi Qo‘shmuhammad o‘g‘li o‘zining 1831 yilda yozilgan “Dili g‘aroyib” asarida ham qiziqarli ma’lumotlar beradi. Uning yozilishicha, qadimda Xorazmning 4-5 ta darvozasi bo‘lgan shaharlari soni ko‘p ekan. Ulardan biri Jurjoniya, biri Urganch, yana bittasi Raml (chagazorlik, qumloq). Raml Som ibn tomonidan otasining kemasiga o‘xshatib qurilgan, hozir u Xivaq nomi bilan mashhurdir.

Xivaliklar Pahlavon Mahmud maqbarasini Nuh payg‘ambari tomonidan shaharning o‘rtasiga tashlangan langar deb hisoblaydilar. Toki, bu maqbara bor ekan, Xiva shahri tinch turadi. SHuning uchun ham xivaliklar uni ko‘z qorachig‘iday asrashadi, unga sig‘inishadi. SHaharning qum ustida qurilganini esa arxeolog olimlar isbotlashdi.

1881 yilda bombayda nashr qilingan “Otashkadai Ozarai” nomli mashhur SHarq tazkirasida Pahlavon Mahmud haqida quyidagilar yozilgan: “Ismi Pahlavon Mahmud, Puryoyvalik laqabi bilan shuhrat topgan, uning pahlavonlik ovozasi olamni tutgan, o‘z asarining yagonasi bo‘lgan. SHe’riyatda qudratli, Kanzul haqoyiq” nomli masnaviysi bor. Keyingi vaqtarda tasavvuf mavzuida yozgan ruboyilar yancha yaxshi chiqqan. Uning Hindistonga borib kurash tushganligi to‘g‘risidagi bizgacha etib kelgan asarlardan qadimgisi 1506 yilda yozilgan Kamoliddin Husain Gozurgohiyning “Majolis ul ushshoq” (Oshiqlar yig‘ilishi) asaridir. Bu asar qo‘lyozma bo‘lib, nihoyatda qimmatlidirki, unda ellikka yaqin miniatyura va ularga qisqacha sharhlari bor. SHulardan bitta miniatyura “Rahlavon Mahmudning hind yigit bilan kurash tushuvi” deb nomlangan. Bu miniatyurada o‘nta kishining rasmi chizilgan. SHulardan ikkitasi polvonlar bo‘lib, beligacha yalang‘oya, bittasi qulab yotibdi, ikkinchisi endigina uni qulatgan. Ularning echilgan kiyimlari chekkaroqda qo‘yilgan podshohning bir tomonida elpig‘ich

bilan elpiyotgan, ikkinchi tomonida chinni idishda ichimlik uzatayotgan xizmatkorlarning rasmi tasvirlangan.

“Majolis ul - ushshoq”da kurash tafsiloti keng berilgan. Unda aytishicha, Hindistonga kurash musobaqasiga taklif qilingan Pahlavon Mahmud, hindilar tarafida turib urushda qatnashadi va hindilar podshohi Roy Ropay Junani o‘limdan qutqazadi. Urushda hindistonliklar g‘olib chiqqach, podshoh Juna mamnun bo‘lib pahlavonga qarab, “Tila tilangini” deydi. Pahlavon Mahmud molu dunyo, oltinkumush talab qilmay, bir vaqtlar Xindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod qilishni iltimos etadi. Juna Pahlavonning iltimosini bajo keltirib, uning yurtdoshlarini tutqinlikdan ozod qilibyo‘l xarajatlarini ham berib, Xorazmga qaytaradi.

Puryoyvalik, qitoli taxalluslari bilan she’rlar yozgan Pahlavon Mahmudning bugungi kungacha topilgan 350 ta riboysi T. Jalolov, Matnazar Abdulhakimovlar tomonidan forsiydan o‘zbekchaga o‘girildi. Uning vafoti sanasini xivalik XIX asr tarixchisi Xudoyerberdi Qo‘s sh Muhammad o‘g‘li o‘zining “Dili g‘aroyib” asarida “xivaqiy” so‘zidan topiladi deb yozadi. “Xivaqiy” so‘zidan abjad hisobi bo‘yicha xijriy 726 sanasi, yoki melodiy hisobi bilan 1326 yil kelib chiqadi.

Pahlavon Mahmud qabri ustida maqbara qurilishi masalasiga maxsus yondoshgan san’atshunos olim Iosif Isaakovich Notkin - maqbara XIV asrda dastlab Sayyid A’louddin maqbarasiga o‘xshagan bir xonali ixcham bino bo‘lgan bo‘lsa kerak.- deb yozadi. Maqbara atrofi asta –sekin qabristonga aylanadi.

1663 yilda vafot etgan Abulg‘ozixon pahlavon Mahmud maqbarasiga dafn qilinadi. Uning o‘g‘li Anushaxon davrida Pahlavon Mahmud va Abulg‘ozixon qabrlari ustida xom g‘isht va yog‘ochdan cho‘bkori (sinch) maqbara quriladi. SHundan keyin XVII asr ikkinchi yarmida xumronlik qilgan Anushaxon, Xudoydodxon, arangxon, Jo‘jixon, SHohniyozxon, XVIII asrning boshida hukmronlik qilgan YOdgorxon, Temurg‘ozixon va ularning yaqinlari bu erga dafn qilinadilar.

1810 yilda Qo‘ng‘irotga navbatdagi yurishi muvaffaqiyatli chiqqan Muhammad rahimxon I Pahlavon Mahmud maqbarasini qayta qurish va o‘ziga abadiyat uyni tayyorlatish uchun buyruq beradi. Bu qurilishga ma’mur etilgan Muhammad YUsuf mehtar eskirgan imoratlarni yiqib, yangidan pishgan g‘ishtdan maqbara qudiradi. Katta gumbazli xonaqoh to‘rida Muhammad Rahimxon I uchun qabr tayyorlab qo‘yiladi. 1825 yilda xon vafot etgach shu joyga dafn qilinadi. Bu davrgacha maqbara peshtoqining tepe qismigina koshin bilan bezatilib ulgurgan edi. Otasining o‘rniga taxtga o‘tirgan Oloqulixon maqbara katta gumbazining sharqiy devoriga yopishtirib shimoldan janubga cho‘zilgan dahlsiz qudiradi. Daxlsizo‘rtasining sharq tomonidagi chuqur ravoqda o‘zi uchun qabr tayyorlatib butun maqbarani koshin bilanbezatish haqida farmon beradi.

Muhammad YUsuf mehtar bu ishga xorazmlik mashxur koshinkor ustalardan hazorasplik odina Muhammad o‘g‘li (Xitoy qishlog‘i) xonqalik Abdol Jabbor Ishoq o‘g‘li (Madir qishlog‘idan) yangiariqlik mullo Qodir Bardi o‘g‘li (Kattabog‘ qishlog‘idan), xivalik Abdulla YOqub Husayn o‘g‘li (SHayxlar qishlog‘idan), Mulla Muhammad panoh o‘g‘li (Sangar qishlog‘ida) Mulla Nur Muhammad o‘g‘li va boshqalarni jalb qiladi. Maqbaradagi qoplama bezaklar mukammalligi bilangina emas, balki naqshlarining mohirona ishlaganligi va xona ichida bekamu ko‘stligi bilan ham bebahodir. Koshin g‘ishtlar kvadrat shaklida bo‘lib, birisidagi naqsh, ikkinchisida xuddi shunday jaylashgan usulda takrorlanmaydi. Ulardagi naqsh chiziqlari bir-biri bilan aniq bog‘lanib ketadi va umumiy bezak laavhalarni tashkil qiladi. Koshinlardagi naqsh gullarning aksari rangi oq, ko‘k va zangori bo‘lib, bu ranglarning tanlanishi ham bejiz emas. CHunki, qadimdan oq rang tozalik, yorug‘lik, baxt va omad ramzi, ko‘k rang moviy osmon, yomon kundan asrash, zangori – oliy e’tiqod ramzini bildirgan. Naqshlarda ham olam-olam ma’nolar yashiringan. Masalan, aylana naqshlar ichiga har xil gullar rasmining yasalishi, yoki kishini niyatidan qaytarish uchun qilingan. Koshinlardan birida qush surati tasvirlangan, bu bulbul bo‘lib, sadoqat ramzini bildiradi, ya’ni Olloqulixonning otasiga va Pahlavon Mahmudga sadoqatini bildiradi. SHunnig

uchun ham katta gumbazning to‘rtlik devori tepasidagi va undan ham balanddagi sakkizlik devoridagi koshinlarda Pahlavon Mahmudning ruboiylari yozilgan. Bu ruboiylar Olloqulixonning buyrug‘i bilan tanlangan.

Olloqulixon Xivadagi eng hashamatli saroy – Tosh xovlini qurdirib, unga koshinlar bilan bezak berishdan avval otasining yotgan joyi Pahlavon Mahmud maqbarasini koshinlar bilan bezattirgan. Bu ishni u 1825 yilning may oyidayoq boshlab yuboradi va shu yilning o‘zida nihoyasiga etkazadi. Olloqulixonning otasiga hurmati shu darajada bo‘lganki, o‘ziga tayyorlatgan qabri otasi yotgan joyning oyog‘i uchi tomon va pastda qurilishini bu yurgan. Bu an’ana avvaldan kelayotganini sezish qiyin emas, Pahlavon Mahmud oyog‘i uchida Abulg‘oziy va Anushaxonlar (XVII asr toshlari) ulardan keyin esa Muhammad Raximxon I qabri joylashgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasi asosiy kirish eshigi janub tomondan bo‘lib, darvozaxona- yo‘lak SHohniyozxon davrida (1703y) qurilgan. Ichkari hovliga kirilgach o‘ng qo‘lda Muhammad rahimxon II davrida qurilgan yozgi masjid va quduq bor. G‘arb tomonda eski qabrular o‘rnida XX asr boshida isfandiyorxon tonidan onasi uchun ikki qavatli qilib qorixona qurilgan. To‘g‘rida katta katta gumbazli xonaqohga kirish eshigi o‘rnatilgan baland peshtoq joylashgan. Katta xonaqohning chap, g‘arb tonnidagi eshikdan ziyoratgohning chap, g‘arb tonnidagi eshikdan ziyoratxonaga, undan esa o‘ng tonndagi qabrxonaga kiriladi. Xonaqoh, ziyoratxona, qabrxona devorlari erdan tepasigacha, hamda Pahlavon Mahmud va Muhammad rahimxon I qabrlari gul dor koshinlar bilan bezatilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasi 1950-55 yillarda mashhur usta ro‘zmat arbob Masharipov, 1969-1970 yillarda usta Tangribergan Bekiev rahbarligida ta’mirlanibgumbazining zangori koshinlari yangilandi. 1997 yilda Xiva shaxrining 2500 yillik yubileyi arafasida O‘zbekiston ta’mirshunoslik loyihalash instituti arxitektorlari beshirov remzi, Salimboev Abdumalik, Jumaniyozov Ozod va Mirzarahimov Mirmaqsudlar tuzgan loyiha asosida Xiva ta’mirshunoslik

xissadorlik jamiyatining koshinpazlik sexi ustasi Rustam Tohirov gumbazning zangori koshinlarini pishirib berdi. Panaev SHomurod va Ismoilov Omon ustalarning a'zolariga gumbaz ustidagi koshinlarni yangilashdi.

Gumbaz ustidagi katta metall qubba “qadriyat ta’mir” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Qurbanboy Matkarimov boshchiligidagi brigada a’zolari tomonidan xonlik davridan keyin birinchi marta oltin bilan qoplanadi. Bugungi kunda maqbara atrofida jami 54 gumbazli jumladan 13 ta peshtoqli maqbara, 76 mozor va bitta omonat mozor bo‘lib, hammasi ta’mirdan chiqqan.

Maqbaradagi o‘yma naqshli eshiklarning beshtasida koshinlarini o‘nta joyida, oltita marmar qabrtoshida uchta metall buyumda arab, fors va turkiy tillarda yozuvlari bor.

XVIII asr ikkinchi yarmida hokimiyat tepasiga kelgan qo‘ng‘irot sulolasining vakili Muhammad Amin inoq, garchi taxtda qo‘g‘irchoq xonni o‘tqazgan bo‘lsada, o‘zi mamlakatning xaqiqiy hukmdori ekanini qalbidan his qilib, shahar obodonchiligidiga asosiy e’tiborini qaratadi. Nodirshoh bosqinidan deyarlik 50 yil o‘tgach vayronaga aylanib qolgan shahar, qal’a devorlarini, buzilib qolgan imoratlarni qayta tiklab, o‘zidan keyingi xukmdor vorislarga bu ishni davom qildirish va fuqarolar hayotini yaxshilashni boshlab beradi.

SHundan keyin o‘tgan har bir hukmdor davrida shaharda yangi qurilishlar, ommani savodli qilish uchun maktab va madrasalar qurish odat tusiga kiradi. Eltuzarxonidan (1804- 1806) yildan boshlab esa Xorazm tarixini yozishdek ulug‘ bir ish ham yana yo‘lga qo‘yildi.

Bu sulola vakillari hokimiyat tepasiga kelgach, Markaziy Osiyoda qadimgi Xorazmshohlar mamlakati o‘rnida garchi hududlari kichik bo‘lsada, yangi qudratli davlat barpo qilindi. XX asr boshiga kelganda esa, mamlakat poytaxti Xiva shahrining qurilishi ham nihoyasiga etib bo‘lgandi. Bu shaharda Pahlavon Mahmud maqbarasining qurilishi - o‘zbek xalqining buyuk farzandi Pahlavon Mahmudning e’zozlanishi yoki Xiva xonlarining abadiyat uyi yaratilishi bo‘libgina

qolmay, balki shaharning ko‘rki sanalgan muqaddas dargoh o‘zbek, turkman, qoraqalpoq halqlarining ishonch bilan qilinadigan ziyoratgohi sifatida bunyod qilindi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi xonaqohi sharqiy tomonidagi yagona eshik butun majmuadagi eng qadimgi yodgorlik bo‘lib, undan boshlangan dahliz orqali Jome masjidiga o‘tilgan. Bu eshik va uning kesakisidagi yozuvlar oldingi sahifalarda keltirilgan edi. Uning tillo rang xalqasi, xalqaning eshikka mustahkamlab turgan bandi va taglikdagi yozuvlarini keltiramiz. Halqaning deometri 168 mm. Bu xalqani eshikka o‘rnatish uchun avval 10 mm qalinlikdagi 15 x 21 sm mis taglik eshikka o‘rnatilgan. Halqadagi yozuv devoniylari nasx xati mushtarakligida amalga oshirilgan. Unda arab tilida bag‘ishlov bitik va olti misra forsiy she’r bitilgan. SHe’rning oxirgi misralari o‘qib bo‘lmash darajada o‘chib ketgan. Har misra orasida qavs ichida ismlar yozilgan. SHulardan faqat bittasini aniq o‘qisa bo‘ladi. Unda “Umar ibn Muhammad” deb yozilgan.

Arab tilining nasx yozuvida mis taglikka bitilgan matn:

Fi izzati rabbial avval bitarixi sanata 754. Sultonil orifin qutbil muhaqqin varsal al anbiyo, toj al avliyo, Pahlavon Mahmud quddusillo ruhi al aziz va navvarolohi marqadihu

Tarjimasi:

754 Rabbi al avval oyining boshi (1353 yil 6 aprel). Donolar sultoni, haqiqat egalarining boshlig‘i, payg‘ambarlar merosxo‘ri, avliyolarning toji bo‘lmish Pahlavon Mahmudning aziz ruhini va pok qabrini Olloh munavvar qilsin!

Halqani ushlab turgan mis bandiga arab tilida, devoniylari yozuvida shunday yozilgan:

Hozihu jannat ilohil oliya, haram ul fuqaro abobo halid alla hu biqablihi

Tarjimasi:

Oliy Olloh ushbu fuqarolarning eiyoratgoh uyi oldidagi eshikni abadiy qilsin.

Pahlavon Mahmudning vafotidan 27 yil o‘tgach o‘rnatilgan eski eshik va uning xalqasi, aynan shu vaqtda birinchi marta maqbara qurilganidan darak beradi. Keyinchalik bu maqbara qayta-qayta yangilangani tarixiy asarlar va majmuuning epigrafikasidan ma’lum.

Maqbaradagi yana bir metal buyumga naqshlar orasida yozuvlar bitilgan joy, xonaqohning to‘ridagi Muhammad Rahimxon I qabri oldiga o‘rnatilgan o‘yma naqshli mis panjarada uchraydi. Bu panjara nihoyatda chiroyli o‘simpliksimon naqshlar bilan bezatilganki, ular tom ma’noda o‘yma. YA’ni misning qalinligi ikki millimetrik bo‘lganligi uchun, naqsh o‘yib ishlanganda naqshlar orqa tomonga teshib o‘tkazilgan. Mis panjaraning uzunligi 260 sm va balandligi 65 sm bo‘lib, katakkatak qilib naqshlar o‘yilgan. Xonalarning soni 20 ta, o‘lchamlari hammasi bir xil bo‘lib, 24-24 sm. Panjara o‘rtasida fors tili, suls xatida ustanning ismi va bitta ruboiy yozilgan Mis o‘ymakorligi san’ati namunalaridan hisoblangan ikkita tug‘toji Xiva shahar “Ichan - Qal’a” muzey qo‘riqxonasining Tarix bo‘limida saqlanadi. Ulardan biri Sayyid Muhammadxon davrida (1856-1864 yy.) ishlangan. Undagi yozuv nasta’liq xatida:

“Olloh”, 1273, “YO Qodir”.

YOzuv teshib yozilgani sababli har ikki tomondan o‘qiladi. Bu tug‘toji to‘q sariq misdan ishlangan, undagi hijriy 1273 sanasi, 1856-1857 yillarga to‘g‘ri keladi. “Olloh”, “YO Qodir” so‘zlarining yozilish sabab, Olloh madadkorimiz, “YO Qodir” – Ollohnинг nomi bo‘lib, qudratli, har ishga qodir Ollohgа ulkan ishning oldidan qilinadigan iltijoni bildiradi. Ayniqsa, biron erga harbiy yurish paytida bu iltijo navkarlarga ruhiy quvvat bergen.

Mis halqa yozuvining o‘rganilishi Pahlavon Mahmud maqbarasining XIV asrdayoq qurilganini isbotlasa, tug‘tojilarning e’tiborli ishlanishi, ulardagi yozuvlar Xiva xonligi davrida bayroq - tug‘larning harbiy yurishlarda ahamiyati katta bo‘lgani, bu tug‘larning ham o‘z ramziy ma’nosi bo‘lib, shu nuqtai nazardan o‘z qadr qimmatiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qadimda yog‘och o‘ymakor ustalari faqat buyurtma asosida ishlashgan. Ularning asosiy xom ashyosi gujum, qoramон (qayrag‘och), ko‘k terak va tut daraxtlaribo‘lgan. Xiva ustalari yog‘ochning tabiiyligini saqlash va uzoq muddatga chidamli hamda chiroyli bo‘lib turishi uchun unga hech qanday bo‘yoq urishmagan.

Pahlavon Mahmud qabrxonasiga kirish eshiklari ham nihoyatda chiroyli o‘simpliksimon va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, qabrxona eshigining naqshlari juda nafis ishlangan bo‘lib, san’atning eng chiroyli namunasidir. Unda fil suyagidan ishlangan mayda naqshlar geometrik shakllarni ifoda etadi. Bu nihoyatda nozik ish sopma, yig‘ma va qadash usulda bajarilgan. YA’ni suyak va yog‘ochning kichkina bo‘lakchalari ma’lum shaklga keltirilgach, eshikka yopishtirilgan va mayda mixchalar bilan qoqib qo‘yilgan.

Bu ikkala eshikdagi yozuvlar ham bir xil bo‘lib, suls xatida, arab tilida yozilgan bir hadisdir:

Qola rasulu allahu alayhissalomu;

Ana madinat al-ilmi va Aliyyun bobuho

Tarjimasi:

Rasul alayhissalom aytdilar;

Men ilmlar shahri, Ali uning darvozasidir.

Katta xonaqohdan ziyoratxonaga kirish eshigi ham benihoya chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Bu eshikda yog‘och o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi san’ati bilan uyg‘unlashib ketgan. Eshikning har ikkala tavaqasi yuqorisida suyakdan ishlangan naqshlar o‘rnatilgan va yozuvlari bo‘lgan. Bu yozuvlar bugungacha saqlanmagan, lekin Xiva davlat muzey – qo‘riqxonasi fondida saqlanayotgan, foto suratdan bu eshiklardagi yozuvlarni topishga muyassar bo‘lingan.

Maqbara eshiklaridan yana biirida yozuvlar mavjud bo‘lib, bu eshik orqalikatta gumbaz-xonaqohning sharqiy tomonidagi Jome masjidiga olib boradigan dahlizga chiqilgan. Bir tavaqali (yakka qopi) ushbu eshik va uning kesagisining o‘yma naqshlari ichida suls xattida, arab tilida bitilgan yozuvlar bunga misol bo‘la oladi.

3.3. Xonlik tarixini o‘rganishda epigrafikaning o‘rni

O‘rta Osiyoda XVII-XIX asrlarda mavjud bo‘lgan xonlik - Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy muhiti, tarixini o‘rganishda ko‘pgina mahalliy muarrixlarning asarlariga, turli moddiy va ma’naviy ya’ni arxeologik, paleografik, etnografik, numizmatik, arxiv, muzey materiallari va folklor manbalarga murojaat qilinadi. Epigrafik manbalar xonlik tarixining siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy - ma’naviy hayotini o‘rganishda ahamiyatlidir. Tarixan ma’lumki, epigrafika yunoncha buyumga yozilgan degan ma’noni bildirib, unda sopol, metall va boshqa qattiq buyumlarga bitilgan yozuvlar o‘rganiladi. Epigrafik yozuvlarning o‘ziga xos yana bir jihatni bu abjad hisobida tarixiy voqelikni keltirilishidir.

Xiva epigrafik manbalar tadqiqi natijasida ko‘rildiki, epigrafika qadimiy tarixga ega bo‘lib, buni o‘rganish yuksak mahorat va katta mehnat talab qiladi. Epigrafik manbalar qatorida yog‘och ustunlar, yog‘ochdan qilingan turli san’at namunalarida bitilgan yozuvlar, masjid-madrasa eshiklarining ustunlariga, qabr toshlariga yozilgan yozuvlar, marmar taxtachaga yozilgan yozuvlar, me’moriy obidalar – madrasa peshtoqi, minora masjid ichkarisidagi, devorlardagi yozuvlar, hukmdor va amaldorlarning qilichiga hattoki, tangalarda bitilgan yozuvlar, darvoza tavaqasiga bitilgan bitiklar ham tarixni o‘rganish va boyitish uchun muhimdir. Epigrafik yozuvlar arab imlosining kufiy, suls, nasta’liq va ta’liq ko‘rinishida, ba’zi manbalar fors imlosida yozilgan. Quyida epigrafik yozuvlarning tarixga aloqadorligini keltirib o‘tamiz.

Qo‘hna Ark darvozasiga qaratib qurilgan Muhammd Rahimxon soniy madrasasi Xiva me’morchiligi namunasi bo‘lib, madrasaning peshtoqiga arab tilida

shunday yozilgan: “Ushbu muborak binoni zamon sultonini va dunyo hoqonini, Allohnning xalifasi va soyasi, g‘alabalar va shuhratlar egasi, engilmas qudrat sohibi, mamlakatlarni fath qiluvchi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon bunyod qildirgan. Sana 1289.” (1872 y.)¹¹⁰

Xiva ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan Masjidi Kalon Ichon-Qal’aning sharqiy va g‘arbiy darvozalarini tutashtiruvchi katta ko‘cha yoqasida joylashgan bo‘lib, uning boshqa masjidlardan farqi arab me’morchiligiga xos uslubda yopiq, ko‘p ustunli va hovlisiz qilib qurilganligidir. Tomi yassi, to‘sini, shiftini 213 ustun ko‘tarib turadi. Ustunlar masjid tuzilishining asosini tashkil etishi bilan birga uning badiiy bezagi ham hisoblanadi. Masjiddagi mehrobning ikki yonidagi devorga o‘rnatilgan marmar toshlarga o‘ymakor xatlar bitilgan. Xatlarning birida masjid mulki va mablag‘i haqidagi vaqfnoma, ikkinchisida esa masjid tarixiga oid ma’lumotlar keltirilgan.¹¹¹

